


57.
44-77

mansurov, M. Z Rejaboyeva,
Ch. G. Uzoqova

SOG'LOM FARZAND TARBIYASINING SIRLARI



SH. SH. SHOMANSUROV, M. Z. REJABOYEVA,
CH. O. UZOQOVA

SOG'LOM FARZAND
FARBIVASINING
SIRLARI

crane



"O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBA'AJODIY UYI
TOSHKENT — 2013

57 1571

Sh. Sh.

Sh. Sh. Shomansurov

Sog'lom farzand
Toshkent viloyati
Chirchiq

15964

UO'K : 613.221

616-053.31

KBK 57.32.

Sh 77

Ushbu kitob endigina dunyoga kelgan farzandining sog'lom o'sishi, kamol topishi uchun onalar nimalarga asosiy e'tiborlarini qaratishlari zarurligi haqida to'liq ma'lumot beradi. Kitobning eng ahamiyatli jihatlaridan biri — bu tug'ilgan farzandning go'dakligidan to uch yoshgacha bo'lgan davr qamrab olinganligidir. Chunki bu davr har qaysi ota-ona uchun eng mashaqqatli davr hisoblanadi.

Mazkur kitob bolalar shifokorlari, nevrologlari, tibbiyot sohasida ta'lim olayotgan talabalar, soha pedagoglari hamda yosh oilalar uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tasa-da, u keng kitobxonlar ommasi uchun ham foydalidir.

Taqrizchilar: **I. R. YULDASHEV** — ToshTPI „Gospital pediatriya, noan'anaviy tibbiyot asoslari, klinik allergologiya va gematologiya kafedrasi mudiri, t.f.d., professor.

A.R. SAGATOV — ToshVMOI „Nejroreabilitatsiya va sharq tabobati“ kafedrasi dotsenti, t.f.n.

SH.X. SAIDAZIZOVA — ToshVMOI „Bollalar asab kasalliklari“ kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Ongli yashaydigan har bir odam yaxshi ang-laydiki, bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne'mat bo'lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Islom Karimov



Bugungi farvon hayotimiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlarning natijasidir.

KIRISH

Bola dunyoga keladigan oila jamiyatning asosidir. Yurtimizda oila avlodlar davomiyligi ta'minlanadigan, farzandlar kamolga yetadigan mo'tabar dargoh sifatida e'zozlanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilaga jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. Sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish va shu orqali sog'lom avlodni kamol toptirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Yoshlar qurgan oila mustahkam bo'lsagina, ularning turmushlari obod bo'ladi. Oila va turmush bir-biriga uzviy bog'liq. Shu sababli ham Prezidentimiz tomonidan 2013-yil „Obod turmush yili“ deb nomlandi. Chunki, oila sog'lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror va oboddir. Mustahkam oila va baxtli turmush, avvalambor, oila quradigan yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab yetishiga bog'liq.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-ona zimmasiga uni aqliy sog'lom, barkamol va yetuk farzand qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Allomalar aytadilarki, har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati farzand tarbiyasiga bevosita bog'liqdir.

Farzand tarbiyasi ayol jismida bola paydo bo'lgan kundan boshlanmog'i lozim, deb bejiz aytilmaydi. Eng avvalo, ona tanasi shakllanayotgan va o'sayotgan homila uchun yashash muhiti ekanligini har birimiz yaxshi anglashimiz kerak. Onadagi holat va kechinmalar murg'ak vujud tabiati va tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolaga avvalo ota-onaning mehribonligi zarur. Ota-onalar farzandining yorug' dunyoga kelishini entikib kutadilar va



bu hayotlaridagi asosiy voqea deb biladilar. Bu aslida ham shunday. Ilk farzandingiz tug'ilganida esa olam bosh-qacha bo'lib qolganday tuyiladi.

Inson paydo bo'ldi! Bunday paytlarda Ayol o'zini yaratuvchidek his etadi. Ayol o'z bolajonisiga sinchiklab qaragani sari o'ziga turli xil savollar beradi. Uni qanday parvarishlayman? U qanaqa odam bo'lar ekan? Kelajakda kim bo'ladi? Ayolni shunday savollar o'ylab toldiradi, goho shubha qamrab oladi: bola boqish qo'limdan kelarmikan?

Ushbu kitob Siz aziz yosh oila beklari va bekalarini o'ylantirgan ayrim muammolarni hal qilishingizda yordam beradi. Murakkab va ayni vaqtda quvonchli bo'lgan bola tarbiyasini oqillik va bilimdonlik bilan olib borishingizda Sizga eng yaqin ko'makchi bo'ladi. Bu ishda Sizga sabr, omad va oilangizda hamisha quvonchli lahzalar ko'proq bo'lishini tilab qolamiz.

Mualliflar

Chaqaloqning rivojlanish mezonlari



Bugun eng baxtiyor kun — Siz chaqaloq bilan tug'uruqxonadan chiqdingiz. Bugun u birinchi marta o'z uyida uxlaydi. Bu yerda u ota-onasi bag'rida bo'ladi. Sizga bolajoningiz tarbiyasi va parvarishida jismoniy yordam juda kerak.

Garchi chaqalog'ingiz mutlaqo nochordek bo'lib ko'rinsa-da, baribir o'ziga xos aqliy va harakat rivojlanish mezonlariga ega bo'ladi. Masalan, uni qorniga yotqizib qo'ysangiz, u o'zi boshini bir yonga burib oladi. Bu nafas olishini yengillatish uchun — himoya qilish refleksidir. Agar uni barmog'ingiz bilan labidan qitqilasangiz, u labini cho'chchaytiradi va atrofni qidiradi — bu *xartum* yoki *qidirish refleksi* hisoblanadi. Haftalar o'tgandan so'ng chaqaloqni qorni bilan yotqizib, oyoq kaftiga kaftingizni qo'yib bossangiz, u biroz emaklaydi. Bu *emaklash* yoki *Bauer refleksi*. Xo'sh, agar chaqaloqning har bir qo'lchasiga ko'rsatkich barmog'ingizni solib, yotgan joyida biroz ko'tarsangiz, chaqaloqning changali temirdan bo'lmasa-da, xiyla qattiqligi ma'lum bo'ladi — bu *tutish refleksi* yoki *Robinson refleksi* deyiladi. Bularning hammasi bolaning normal taraqqiyot mezonlariga kiradi.

Shunday qilib, chaqaloqning normal taraqqiyot mezonlarini puxta bilgandagina uning aqliy va harakat rivojlantirishini to'g'ri baholash mumkin.

Nimaga e'tibor qaratish kerak?

Sizning bolajoningiz! U shu qadar qadrdon va ayni vaqtda juda notanish. Siz uni diqqat bilan o'rganasiz: burni dadajonisiga, ko'zlari oyijonisiga, yuzining cho'zinchoqligi buyjonisiga tortgan. Ammo Siz faqat „oilaviy“ belgilari-gagina emas, balki uning ba'zi jismoniy alomatlariga ham e'tibor solishingizni maslahat beramiz. Katta liqildog'i ortiqcha taranglashib, bo'rtmaganmi? Ko'z qiyiqlari bir xil bo'lib, ko'z olmalarining harakati bir xilmi? Yig'laganda dahani titrab, og'iz atrofi ko'karmaydimi?

Qarang, yuzining o'ng va chap tomoni baravarmi? Qo'l va oyoqlari bir xil kuch bilan bukiladimi? Bukilma-lari bir xilmi? Yig'laganda qo'l va oyoqlari titramaydimi? Tug'uruqxonada shifokorlar bu o'zgarishlarga ahamiyat beradilar, ammo vaqt o'tishi bilan, nimadir o'zgarishi mumkin-da. Tug'uruqxonani tark etayotganda ayrim bolalarda jismoniy sariqlik saqlanib qolishi mumkin. Bunda bolaning yuzi, badani va ko'zining oqi ham sarg'ayadi. Bola bu paytda uyquchan va horg'in bo'ladi. Sariqlik 14 kun ichida to'la yuzaga chiqadi. Bu vaqtda ona sabrli bo'lishi kerak, ayniqsa, ovqatlantirganda, chunki bola ko'krakni juda erinchoqlik bilan emadi. Bola tug'uruq-



xonadan chiqayotganda kindigida faqat jarohat izi qoladi. Vaqtida yarani tozalab, shifokor aytgan muolajalarni bajarishga harakat qiling. Yangi tug'ilgan chaqaloq, odatda, kuniga 16—19 soat uxlaydi. Bola olti haftalik bo'lganida kechki uyqu 10—12 soatni tashkil etadi. Shuningdek, unga ikki marta qisqa uyqu zarur bo'ladi. Shifokorning fikricha, kunduzi yaxshi dam olgan bolaning kechqurun uxlashi oson bo'ladi. Gap shundaki, kunduzi kam uxlagan bola kechga tomon haddan tashqari charchab qoladi, tez va oson uxlab qolishga qiynaladi. Olimlarning fikricha, tungi uyqu neyronlarning birlashuviga, bola miyasi hujayralari orasida yangi aloqalarning vujudga kelishiga yordam beradi. Shu sababdan uzluksiz uyqu bola rivojlanishida muhim o'rin tutadi. E'tibor qiling! Bolangiz uyqusida tinch va osoyishta, cho'chimasdan yotishi lozim.

Bola terisining parvarishi

Teri atrof-muhitning salbiy ta'sirlaridan himoyalash bilan bir qatorda tashqi ta'sirlarni qabul qiluvchi muhim sensor va samarali termoregulatordir. Bolaning sog'lig'i va o'zini qanday his qilishi terining holatiga bog'liq. Chaqaloq terisi kattalarnikiga qaraganda 1,5—2 marta yupqa bo'ladi. Bundan tashqari, bola epidermisining tuzilishi nisbatan yumshoq bo'lib, bu hol teri mustahkamligini va himoya xususiyatlarini kamaytiradi. Aynan shu sababli ularda qisilish va ishqalanish joylarida qizarish, shilinish, pufakchalar oson hosil bo'ladi. Bola terisining sog'lomligini ta'minlash uchun uni doimo quruq va toza saqlash kerak.

Sog'lom chaqaloqni uyqusidan oldin kunda bir marta cho'miltirish foydali! Chaqaloqni cho'miltirish uchun sizga alohida vannacha kerak bo'ladi. Hozir uning xilmaxili bor, ammo eng qulayi bola boshini qo'yadigan maxsus supachasi bo'lgan vannachadir. Vannaga sirpanishdan asraydigan rezina gilamcha yoki toza sochiq solib qo'ying.



Har bir cho'miltirishdan oldin qaynoq suvda barcha cho'milish anjomlarini: vannacha, gubka, gilamchani chayib oling. Vannachadan bola tagliklarini yuvishda foydalanmang! Ayrim yosh onalar bolani birinchi marta o'zlari cho'miltirishdan qo'rqadilar, shu bois to o'zingiz eplaydigan bo'lmaguncha yaqinlaringiz yordamidan foydalaning! **Kindik yarasi bitguncha bolani faqat qaynatib sovutilgan va nimrang marganes (margansovka) qo'shilgan suvda cho'miltirish lozim.** Vannachadagi suv harorati $+37^{\circ}\text{C}$ bo'lsin. Uni termometr yordamida o'lchang. Cho'miltirish vaqtida bolani orqasi bilan yotqizing va suv yutib yubormasligi uchun qo'lingiz bilan boshi ostidan uahlab oling. Chaqaloq uchun ikki-uch daqiqa cho'milish kiffoya. Cho'miltirgandan keyin uni taglik bilan o'rab quriting. Chaqaloqni paxmoq sochiq bilan artmang, chunki, bola terisi yuqorida ko'rsatilgandek juda nozik bo'ladi! Teri burmalariga upa surting. Har kunni bolaning yuz-qo'llarini yuvishdan boshlang. Ko'zlari, odatda, qaynagan iliq suvda ho'llangan paxta bilan tashqi burchaklardan burun tomonga yo'naltirib artiladi. Ammo har bir ko'z uchun alohida paxta bo'lagidan foydalanish kerak. Burmini paxtali rezina cho'p bilan moyupa yoki iliq suv shindirib, asta „aylantirib“, burun ichiga kirgizib tozalaysiz. Chaqaloqning qulog'ini tozalashga zinhor harakat



qilmang, siz uning nozik quloq pardasini shikastlab qo'yishingiz mumkin.

Chaqaloqning bir martalik tagligi (pampers)ni almashtirgandan keyin bolani har safar chayintirib turing. O'g'il va qiz bolalarda tozalik qoidalarining o'ziga yarasha nozik tomonlari bor. Agar chaqaloq taglikni bulg'ab qo'ysa, uni iliq suvda sovunlab yuving. Shuni unutmangki, kundalik parvarish bolaga quvunch bag'ishlashi uchun uni chalg'itishga harakat qiling. U bilan gaplashing, o'yinchoqlar ko'rsating.

Chaqaloq tirnog'ini olishda ehtiyot bo'ling. Uning qo'l va oyoq tirnoqlarini haftada bir marta olib turing. Chunki uzun tirnoqlar bilan u o'zini tirnab olishi mumkin. Tirnoqni kunduz kuni, bola uxlayotganda oling. Uxlatishdan oldin xonani shamollating. Chaqaloq kiyimlari va tagliklarini (dastlabki ikki oyda) qizigan dazmol bilan har ikki tomonidan dazmollang. Shu tariqa ular mikrobdan tozalanadi.

Bolani ovqatlantirish

Albatta, bolani ko'krak suti bilan boqqanga nima yetsin. Ko'krak sutini emgan bola kam kasal bo'ladi. Chunki, ona sutida immunologik va biologik faol moddalar juda ko'p. Ular chaqaloqni mikroblar va yuqumli kasalliklardan

qamaydi. Yosh onalar ko'pincha ko'kragingingiz sutsizligidan yoki sutli suyuqligidan nolishadi. Bu yerda shuni aytish o'rinli, dastlabki uch oyda, vaqtincha, sut tortilishi kuchayishi mumkin. Sutni ko'paytirish uchun: tabiiy sutli choy ichish, qatiq iste'mol qilish, yaxshi ovqatlanish, to'yib uxlash, ochiq havoda aylanish, asablarni saqlash zarur.

Yangi tug'ilgan chaqaloqqa dastlabki kunlarda 40—50 minutdan so'ng ko'krak suti berish kerak. Agar bola sust emsa, emizish vaqtini 20 dan 40 minutgacha uzaytirish mumkin. Tug'uruqdan so'ng bir-ikki hafta davomida sutning miqdori ko'payadi, uning ajralishi va tarkibi o'zgaradi, endilikda bu yetilgan sut hisoblanadi. Eng jazirama kunlarda ham go'dak ko'krak suti bilan o'zi uchun zarur bo'lgan suv miqdorini o'zlashtiradi. Emizish orasidagi tanaffuslarni 2,5 soatgacha qisqartiring. Har safar bolani emizganingizdan keyin ko'krakda qolgan sutni albatta siqib chiqarib tashlang. Agar sut yetmasa, avval bolaga ko'krak tuting, shundan keyin uni sut qorishmasi bilan to'ydiring. Bola sutga to'yishini bilish uchun uni kunda ovqatdan oldin va keyin tarozida vaznini tortib turish kerak. Agar imkoniyat bo'lmasa, haftada bir marta emizishdan oldin va keyin vaznini o'lchab borsangiz ham bo'ladi. Birinchi haftada chaqaloq vaznini yo'qotadi. Qo'rqmang! Uning o'z vaznini yo'qotishi tug'ilgandagi vaznining 10 % ini tashkil etsa, bu me'yoriy hisoblanadi. Ikkinchi haftada chaqaloq o'zining dastlabki vaznini tiklaydi. Har haftada chaqaloqqa 300 grammga yaqin vazn qo'shilishi kerak. Lekin shunga e'tibor beringki, chaqaloq hapriqmasdan, tinch, yaxshi yutib, asabiylashmay emishi kerak. Agar



biron o'zgarish sezsangiz, darhol shifokorga murojaat eting.

Emizikli ona bolaning sog'lig'i (diatez, qorin damligi va h.k.lar bo'lmasligi) uchun parhez qilishi lozim. Sog'lom bola har ikki-uch soatda oziqlantiriladi. Agar bola tunda navbatdagi oziqlanishga uyg'onmasa, uyg'ot-mang. Hozirgi vaqtda vazni me'yoriga mos keladigan chaqaloqlar talabiga ko'ra oziqlantiriladi. Afsuski, ba'zan (onaning sog'lig'iga ko'ra, sut tarkibiga nisbatan) chaqaloqni sun'iy boqish yo'li bilan katta qilinadi. Sun'iy oziqlantirishning asosiy sharti shundaki, sotib olingan sutli bo'tqa bola mizojiga to'g'ri kelishi kerak. Hozir ona sutiga moslashtirilgan juda ko'p turdagi (barcha tarkib va sifat miqdori bo'yicha ona sutiga juda yaqin) sutli mahsulotlar qorishmalari sotilmoqda. Ammo bu taskari ta'sir etishi ham mumkin. Bunda bola: ko'p kekiradi, qorni damlanadi, allergiya toshmalari toshadi. Bunday bolalar albatta bolalar shifokori maslahatiga ko'ra ovqatlantirilishi zarur!

Bolani to'sish

Sog'lom chaqaloqning tez-tez, sutkasiga 3—5 marta ichi keladi. Uning odatdagi rangi sariq, tarkibi kremsimon, bir xil bo'ladi. Agar chaqaloqning ichagi sanchsa, axlati tezlashib, ko'piklansa, demak, uning ichi buzilgan. Buning sabablari ko'p: sun'iy ovqat yoqmasa, ovqatga kasallik chaqiruvchi mikroblar tushsa, buzilgan sutli ovqat berilsa. Bu holatlarda, albatta, vaqt o'tkazmay shifokorga murojaat qilish shart.

Ortiqcha bezovtalik

Ayrim ota-onalar chaqaloq „shunchaki“ yig'layapti, deb o'ylaydilar va e'tiborsiz bo'ladilar. Shu yo'l bilan uni mustaqillikka o'rgatmoqchi bo'lishadi. Bu xatarli yangilish. Har bir chaqaloq yig'ishining sababi bor. Chaqaloq



bir joyi og'riyotganini boshqa yo'l bilan sizga anglatolmaydi. Sabablaridan biri oddiy — tagligi ho'l yoki pampersi to'lib qolgan, ikkinchi sabab — bola och, uchinchisi — qorin sanchig'i (odatda, kechqurunlari oyoqlarini yig'ib, ko'kragini changallab qichqiradi). Chaqaloqning yig'ishi va bezovtaligi uning zo'rqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ona qornida chaqaloq embrion holatda qo'l va oyoqlarini qisib olgan bo'ladi. Ortiqcha harakat qilmaydi. Shu odatga o'rganib qolgan chaqaloq hozircha yangi va tushunarsiz qo'l va oyoqlarining ortiqcha harakatlardan qo'rqishi mumkin. Bunday bezovtalikning oldini olish uchun yo'rgaklashning o'zi kifoya. Agar chaqalog'ingiz to'q, tagi quruq, o'zi sog'lom bo'lganda ham yig'lashdan to'xtamasa, bunga hayron bo'lmang: u faqat ona mehri zori bo'lishi mumkin. Chaqaloqni qorningiz ustiga yotqizing — qorningiz yaqindagi ko'z yorishdan keyin hali yumshoqqina bo'lib turibdi. Bu tabiiy beshikka teng keladigan boshqa beshik bormikan? Chaqaloq yuragingizning tanish urishini eshitadi-da, tinchib boshlaydi. U bilan gaplashing, unga allalar aytib bering, uni qanchalik yaxshi ko'rishingizni ayting, u sizni albatta tushunadi va tinchlanadi.

Chaqaloqni uxlatish



Chaqaloqlar deyarli doim uyquda bo'ladi. Chaqaloqlik davrida u 16,5—19 soat uxlashi, bir martalik uxlash muddati 1,5—2 soat davom etishi kerak. Kechasidagi uyqu 6 soat bo'lishiga harakat qiling. Chaqaloq ovqatlanish uchun bir xil vaqt oralig'ida uyg'onib tu-



radi. Uni har gal uyquga yotqizganda boshi goh o'ng-goh chap tomonga galma-galdan yotqizilishiga e'tibor bering. Chap shundaki, chaqaloq bosh suyagi hali qotmagani bois, agar orqasi bilan yo bir yoni bilan uzoq yotaversa, yusillanib qolishi mumkin. Bola tug'ilganidan to 3 yoshga to'lguncha bo'lgan davrda 280 xil uxlatish usullari bor. Siz bolalarni uxlatishning necha xil usulini bilasiz?

Misol tariqasida biz bir necha xil usulni aytib o'tmoqchimiz. Bolani yumshoq o'yinchoq bilan uxlashga o'rgatish. Alla aytib uxlatish, tebratib uxlatish (tebratish 30 minutdan oshmasligi kerak), ertak aytib uxlatish, yelkasini silab uxlatish, tinch sharoitda uxlatish, bola bilan birga uxlash (ammo bola o'z karavotida yotishi lozim) va hokazo. Siz, albatta, bolangizni o'zingizga va bolangizga qulay usulda uxlatganingiz ma'qul...

Sayr qildirish

Chaqaloq tug'uruqxonadan uyga yo'l olganda u o'zining birinchi sayrini amalga oshirgan bo'ladi. Chaqaloq tug'uruqxonani tark etganining ertasigayot sayrga olib chiqsangiz bo'laveradi. Sovuq kunlardagi dastlabki sayr o'n daqiqa davom etishi kifoya.

So'ngra har kuni o'n daqiqa-dan qo'shib boraverasiz. Issiq kunda farzandingizni uzoqroq sayr qildirsangiz bo'ladi. Asosiy, chaqaloqning sog'lom bo'lishi. Dastlabki vaqtda chaqalog'ingizni ommaviy joylarga olib bormangiz ma'qul. Uni atrof-muhitdagi infektsiyalardan, yot nigohlardan saqlang.



Chaqaloqni emlash (vaksinatsiya)

Infekcion kasalliklarga qarshi kurashishda maxsus (o'ziga xos) profilaktika (vaksinatsiya) usullari tobora katta ahamiyat kasb etib va takomillashib borib, yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olishning eng samarali usuli sifatida xizmat qilmoqda. Maxsus profilaktika (vaksinatsiya) — bu profilaktik emlashlarni amalga oshirish yo'li bilan farzandingizning u yoki bu infeksiyaga nisbatan kurashuvchanligini oshirish deganidir.

Ommaviy ko'lamda o'tkaziladigan emlash yoki vaksinatsiya infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishning ancha kamayishiga, hatto ba'zi infeksiyalarning butunlay yo'qolishiga yordam beradi. Ota-onalar bolani o'z vaqtida emlatish zarurligini esda tutishlari va belgilangan muddatda uni emlash uchun shifokorga olib borishlari kerak. Bolaning u yoki bu vaksina bilan emlanishi uchun belgilangan yoshi ana shu emlash uchun eng ma'qul vaqt hisoblanadi. Biroq **faqat sog'lom bolani emlash mumkinligini ota-onalar yaxshi bilishlari kerak!** Bu emlashlarning xavfsiz bo'lishini, vaksinatsiyaning yaxshi natija berishini ta'minlaydigan eng muhim shart hisoblanadi. Emlashdan oldin siz shifokorga bolangiz salomatligidagi har qanday o'zgarishni aytishingiz zarur. Farzandingiz oxirgi marta qachon kasal bo'lganini, qanday kasalliklar bilan og'riganini, oldingi profilaktik emlashlarda noxush reaksiyalar bo'lganmi (hatto sal bo'lsa-da, reaksiya paydo bo'lganda, bu haqda shifokoringizga xabar qiling), bundan oldin qachon emlanganini shifokor bilishi kerak. Agar shifokor lozim topsa, emlash oldidan ma'lum bir muddatga organizmning profilaktik vaksinalarga sezgirligini pasaytiradigan dori-darmonlar buyuradi va vaksinatsiyaning boshqa beozorroq uslubini qo'llaydi. Bunday bolalarda profilaktik emlashlarni o'tkazmaslik xato bo'ladi. Chunki, aynan xud-

ki shu bolalar infeksiyon kasalliklarni og'ir o'tkazadilar, ko'pincha, ularda og'ir asoratlari paydo bo'ladi. Emlashning o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish bilan o'z farzandingizga katta yordam bergan bo'lasiz. O'zbekistonda yuqumli kasalliklarning immun profilaktikasini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha № 0239-07/2009- sonli qoidalar va me'yorlar asosida profilaktik emlashlarning majburiy jadvali tasdiqlangan. Quyidagi jadvalda bolajonning emlashga zarur bo'lgan umumiy emlashlar vaqti va bola yoshi ko'rsatilgan.

Emlashlar jadvali

Bola yoshi	Emlashlarning nomi
Chaqaloq tug'ilgan 1-sutka davomida	VGv-1
2—5 kunlik	OPV-0 + BSJ-1
2 oylik	AKDS-1 + OPV-1 + VGv-2 + XIB-1
3 oylik	AKDS-2 + OPV-2 + VGv-3 + XIB-2
4 oylik	AKDS-3 + OPV-3 + VGv-4 + XIB-3
12 oylik	KPK -1
16 oylik	AKDS-4 + OPV-4
6 yosh	KPK -2
7 yosh (1-sinf)	ADS-M-5 + OPV-5 + BSJ-2
14—15 yosh (8-sinf)	BSJ-3
16 yosh	ADS-M-6

Chaqaloqqa qachon kiyim kiydiriladi?

Chaqaloqni haddan ziyod burkab kiyintirib bo'lmaydi. U kiyimda o'zini bimalol his etishi kerak. Shunda bola

Yaxshi uxlaydi, o'zini yaxshi his qiladi. Agar uxlingiz
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ 17
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Yaxshi uxlaydi, o'zini yaxshi his qiladi. Agar uxlingiz
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ 17
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

issiq bo'lsa, unga bosh kiyim kiydirmasangiz ham bo'ladi. Isib ketgan chaqaloqning terisi qaynoq bo'lib, goho bo'yinlari, orqasi va ko'krigida toshmalar, bichilgan yaralar kuzatiladi. Bunday paytda, chaqaloqni har safar ovqatlantirgandan keyin havo vannalari qiling. Uning bi-sotida yetarlicha oldi ochiq va paxmoq ko'ylakchasi bo'lsin. Dastlabki ikki haftada, agar chaqaloqqa yengining uchi tikib qo'yilgan ko'ylakcha kiydirsangiz, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Uni o'zini timab olishidan saqlaysiz.

Ko'chaga chiqishda sizga issiq va yengil konvertsimon kiyim, mavsumga qarab yana bosh kiyim kerak bo'ladi. Agar bolaga pamperslar taqilsa, uning kir kiyimlarining soni ham kamayadi. Sizga bir juft tugmali ko'ylakcha, ikki-uchta ishton va bir juft kombinezon zarur bo'ladi. Agar chaqaloq sovuq mavsumda tug'ilgan bo'lsa, qishki kombinezondan foydalaning. Va, albatta, uylikka 4 ta chepchik yoki qalpoqcha va ko'chalikka paxmoq bosh kiyim zarur.

Bolangizni qo'lga oling

Dastlabki vaqtda onajonisi va dadajonisi, bosh bolasini, bunday nozik jisimga shikast yetkazib qo'ymasaydik, degan xavotirda uni qo'lga olishdan cho'chiydilar. Cho'chishga aslo o'rin yo'q. Barcha chaqaloqlarni qo'lga olish, ko'tarish va bir zum tebratish, alla aytib uxlatish mumkin.

Chaqaloq ota-onasi bilan qancha birga bo'lsa, shuncha yaxshi: bu ota-ona bilan bolaning ruhiy bir-biriga yaqin bo'lishini ta'minlaydi.



Chaqaloq bilan muomala qilish

Dastlabki oyda chaqaloq faqat uxlaydi, atigi 4—5 soat hatkor bo'ladi. Shu soatlardan parvarish va ovqatlantirish-gina emas, balki u bilan o'ynash, gaplashishda ham foydalaning. U bilan kulishing, rangli o'yinchoqlarni o'y-nang. Dastlabki oy oxiriga kelib, chaqalog'ingiz endi yovshil sezadi, eshitadi va atrof-muhitni kuzata boshlaydi, erkaklashingizdan tinchlanadi. Shu sababli u bilan ko'p-roq muloqotda bo'ling. Bu o'ta muhim mashg'ulot bo'lib, farzandingizning aqliy, nutqiy, ruhiy rivojlanishi bar-kamolligini ta'minlaysiz.

Chaqaloq va uy hayvonlari

Agar uyingizda uy hayvonlari, baliq akvariumi yoki qushlar bo'lsa, chaqalog'ingizga salbiy ta'sir ko'rsatmas-ligi uchun ularni boshqa xonada boqish tavsiya qilinadi. Gap shundaki, qushlar harakatlanganida patlaridagi mayda zarralari to'kiladi. U esa havo orqali bolaning o'p-kadiga ta'sir ko'rsatib, nafas qisishi, toshma toshishi ku-zatilishi mumkin.



Akvarium ham xuddi shunday: baliq yemishi quruq qo'ng'izlar, qurt-qumursqalarning mayda kukunidan iborat. Agar baliqlar faqat tirik yemish bilan boqilsa, ular xavfli emas. Ko'pchilikning uyida it va mushuklar bor. Ular ham ko'plab kasalliklar chaqiradi, eng avvalo, gijjani yuqtiradi. Yosh organizmga yuqtirilgan gijjaning asorati xilma-xildir: terida oq va jigarrang dog'larning paydo bo'lishi, teriga toshmalar toshishi, soch va tuklar-ning to'kilishi, istahaning susayishi yoki aksincha. Shu-ning uchun uy hayvonlarini vaqtida emlatish kerak, har yarim yilda bir marta gijja tuxumiga axlat analizi topshi-rish, sanitariya qoidalariga amal qilish zarur.

Quyidagi hollarda shifokorga murojaat qiling:

1. Bolangizning issig'i ko'tarilganida.
 2. Kindik yarasi qizarsa yoki yiringlasa.
 3. Fiziologik sariqlik 14 kunda o'tib ketmasa.
 4. Chaqalog'ingiz haftasiga 200 gramm dan kam semirsa.
 5. Ko'zlari yiringlasa.
 6. Terisida yiringlash bo'lsa.
 7. Qo'l va oyoqchalari qiyinchilik bilan va sust hara-
katlansa.
 8. Bola tez-tez kekirib, vazn yo'qotganda.
 9. Ichi suyulib, tez-tez ketse.
 10. Besabab tinmay yig'lasa.
 11. Yig'laganda dahani titrab, ko'karsa.
- Bundan tashqari, chaqalog'ingizda sizni tashvishga soluvchi biror narsa payqagan zahotingiz tezda shifokorga murojaat qiling.

№	Ko'rsatkich	1	2	3
1	Mulotoqaga kirishuv- chanligi	Qorni och va tagi ho'l bo'lsa ham uyg'omaydi yoki qorni to'q va tagi quruq bo'lsa ham uxlamaydi yoki gapirayotgan odamga e'tibor beradi	Qichqirishi baland va beg'ubor, qisqa nafas olib, uzog nafas chiqaradi	Hamma shartsiz reflekslar simmetrik chaqiriladi
2	Tovush reaksiyalari	Qichqirishi uyg'otish qiyin yoki sababsiz qichqiradi, uxlashi qiyin yoki 2-ustundagi belgilar-ning birga kelishi	Qichqirishi o'kir yoki nafas olganida qisqa tovush bilan qichqiradi yoki nafas past ovoza chiqarganda qichqirishi	Shartsiz reflekslar simmetrik chaqiriladi
3	Shartsiz reflekslar	Qichqirishi qiyin yoki uxlamaydi, lekin qichqiradi	Qichqirish o'rni- ga tovushlar chiqaradi, yuzi o'zgarmaydi	Shartsiz reflekslar simmetrik chaqiriladi

4	Mushtaklar tonusi	Passiv harakatlarda fleksor tonusi simmetrik	Doimiy bo'lmagan yengil tonus asimmetrik yoki gipertonus belgilarining boshlanishi	Spontan harakatlarni cheklaydigan doimiy asimmetriya, gipertonus yoki gipertonus	Tananing opistotonus, embriyon yoki qurbaga holatida kuzatilishi
5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Boshini yon tomonga burganida shu tomondagi qo'llining yozilishi doimiy emas	—	Boshini yon tomonga burganida qo'lli yozilmaydi yoki doimio yoziladi	Bola doimo „qilichboz“ holatida
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yotib, boshini qisqa vaqt ko'tarib turadi	Qornida yotib, boshini ma'lum vaqt ushlab tura olmaydi	—	—
7	Sensor funksiyalar	Harakatlanayotgan jismlarni qisqa vaqt kuzatadi, qulog'iga chalingan tovushlarga atrofdagi kishilar nutqiga qulog soladi	1 - ustundagi reaksionalardan biri gumonli	1 - ustundagi reaksionalardan biri kuzatilmaydi	1 - ustundagi reaksionalardan hech qaysisi kuzatilmaydi

8	Signalar (teg'ma nuqsonlar)	Kuzatilmaydi	Ular 5-6 radan oshmaydi	Signalar soni 6 radan ko'p va ular ko'pincha yuz sohasida joylashgan	Signalar soni 8 radan ko'p yoki og'ir tug'ma nuqsonlar kuzatiladi
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Doimiy bo'lmagan yig'iluvchan g'ilaylik yoki doimiy bo'lmagan Greffe simptomi yoki yengil yuz asimmetriyasi kuzatiladi	Doimo g'ilaylik yoki Greffe simptomi yoki mistagm yoki bulbar yoki psevdobulbar sindromlar yoki sezilarli yuz asimmetriyasi	3 - ustundagi simptomlarning birga kelishi
10	Patologik harakatlari	Kuzatilmaydi	Ba'zida bezovtalik paytida yoki kam holatlarda tinch paytida titrash kuzatiladi	Bezovtalik bilan bog'liq bo'lmagan titrash kuzatiladi	Shaytonlash xurujlarining kuzatilishi

FARZANDIM ~ JIG'ARBANDIM


Ikki va uch oylik chaqaloq nima qila oladi?

Tug'ilganidan bir oy keyin ona va bola uzil-kesil bir-biriga o'rganadi. Ovqatlanish va uxlash tartibi belgilanadi. Bola o'sadi, vazni ortadi, to'lishadi. Ikki oylik bolangiz bir necha soniya boshini ko'tarib tura oladi (qornida yotgan holatda), boshini ovoz kelgan tomonga buradi, notanish odamlardan hayiqadi, o'zinikilarga jilmayadi, gapirishga harakat qila boshlaydi. Sizning imlab gapirishlaringizga javoban qo'l va oyoqlarini harakatlantiradi. Bunday ta'sirlanish umumiy jonlanish deb ataladi. Ayrim buyumlarni tanii boshlaydi. Masalan, katta, rangli o'yinchoqlarni farqlaydi, sutli shishachani ajratadi, ulardan quvonadi. Shiqildoqlarni qo'li bilan uradi. Ikkinchi oy oxirida esa shiqildoqlarni qo'li bilan ushlaydi.

Bu oyda qorni bilan yotgan holda boshini ko'tarib, ancha dadil tutib turadi, oynaning ro'parasiga olib kelsangiz, o'zini oynada uzoq tomosha qiladi. Ro'parasidagi odamning yuzini paypaslaydi, atrofini kuzatadi. Tovushingiz chiqqanda yuz ifodasi o'zgaradi. Uning g'uldirashlari aniqroq bo'la boshlaydi.

Uch oylik bo'lganida uzoq muddat uyg'oq holda bo'ladi. Atrofga qiziqishi uyg'ona boshlaydi. O'ziga jalb qildirishga harakatlanib, ovozlari chiqaradi. Ashulasimon tovushlar paydo bo'ladi. Ba'zi shartsiz reflekslar so'na boshlaydi. Oyoq bosish reaksiyasi turg'un tus oladi. Boshini yon tomonga harakatlantirganda yuzi qaragan tomondagi qo'li yoziladi. Vertikal holatda boshini yaxshi ushlaydi. O'yinchoqlarni, sekin harakatlanayotgan yirik narsalarni bemalol kuzatadi. Ovoz chiqayotgan tomonga qaraydi. Qo'lini qiziqitgan narsalarga qarab yo'naltiradi.

Farzandingizning o'yinchoqlari



Farzandingiz uchun plastmassali, yumshoq — tiqma o'yinchoqlarni xarid qilishingiz mumkin. Plastmassa o'yinchoqlar yaxshi va yengil tozalanadi. Bu ayni muddao, chunki chaqaloq hamma narsani og'ziga olib boradi. Karavotchasi ustiga rangdor o'yinchoqlar tizmasini osib qo'ying. Siz o'z ishingizni qilayotganingizda bolangiz shu bilan chalg'iydi. U har xil shiqildoqlarni qiziqib o'ynaydi, tadqiq qiladi, o'rganadi.

Uyqu va ovqatlanish tartibi

Oylar o'tgan sari farzandingiz tunda ko'proq uxlab, kunduzi bedor bo'lib boradi. Ammo shuni unutmangki, ko'krak yoshida ovqatlanish „talabga qarab“ bo'lishi kerak, chunki bola bu vaqtda tez-tez ochiqishi va ochligidan ushlay olmasligi mumkin. Shunday qilingki, u kun bilan tanni farqlay olsin. Masalan, kunduzgi ovqatlanishdan keyin uni bir soat sayrga olib chiqing. Karavotchasiidan olib, atrof bilan tanishtiring, o'yinchoqlar o'ynating. Bu paytda chaqalog'ingizni uqalashingiz ham mumkin. Tunda ovqatlanirayotgan paytingizda chiroqni xira yorug'ga qo'ying. Chaqaloqni tebratmang, alla aytib uxlatng. Agar chaqaloq tun bilan kunni adashtirib qo'ysa, uni kun tar-

tibiga rioya qilishiga harakat qiling. Har safar ovqatlanishdan keyin bir soatgacha uxlagani qo'ymang.

Cho'miltirish

Chaqalog'ingizni ilgorigidek o'zining vannachasida har kuni cho'miltiring. Barcha cho'milish anjomlarini vaqt-vaqti bilan, haftasiga bir marta qaynatib va cho'miltirishdan oldin ularni qaynoq suvda chayib turish kerak. Bola cho'miladigan suviga, uning tinch uxlashi uchun 10—20 tomchidan valeriana yoki pustiirik tomchisini tomizishingiz mumkin. Vannaga solish uchun dori-xonalarda sotiladigan dengiz tuzlaridan foydalansangiz bo'ladi. Bolalar cho'milishni turlicha qabul qiladilar: ba'zilar mazza qilib cho'miladilar, ba'zi bolalar esa jiddiy qarshilik ko'rsatadilar. Odatda, suvdan qo'rqish onaning e'tiborsizligi tufayli yuzaga keladi. Masalan, bolaning ko'ziga sovun kirgan yoki suv haddan tashqari issiq bo'ladi. Ehtiyot bo'ling! Bolaning boshini yuvayotganingizda ko'ziga sovun kirmasin, boshchasini orqaga qilib, uni yuvib tashlang (chaqaloqni chalqancha yotqizib, boshini kaftingizda tutgan holda) so'ngra, odatdagidek, ho'llangan yumshoq sochiqda, terisini tirnamasdan badanini artib qo'ying.



Bosh terisining parvarishi

Ba'zan chaqaloq bosh terisida quruq sarg'ish po'stloqchalarni ko'rish mumkin. Bular **qasmoq** deb ataladi. Bu yog' bezlaridan ajratmalar bo'lib, qurigandan keyin sarg'ish „tangacha“larga aylanadi. Bularni ko'chirib ham, tirnab ham olib tashlab bo'lmaydi. Bular boshga mahkam yopilgan bo'ladi. Kuch bilan ko'chirilsa qonaydi, har xil yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun, boshga sterilangan o'simlik moyi surtib, ustidan bolalar qalpoqchasi kiydiriladi. Qasmoqlar yumshagani-dan so'ng, bolaning boshi yuviladi.

Sayr, quyosh va D vitamini

D vitamini yetishmasa, bolalarda raxit kasalligi paydo bo'lishi mumkin. Quyosh badanda D vitamini paydo bo'lishiga yordam beradi, u bolakayning suyak va tishini mustahkamlaydi, kasalga qarshi chidamli qiladi. Shu bois chaqaloq quyoshda toblanishiga ahamiyat bering. Toblanish uchun eng qulay vaqt soat 10⁰⁰ dan 12⁰⁰ gacha, bu paytda quyoshning ultrabinafsha nurlari ko'p bo'ladi. Quyosh vannasini qabul qil-

dirishda juda hushyor bo'lish kerak. Quyoshga chaqalog'ingiz badanini asta-sekin ochib bemasiz: avval oyoqlari, ertalig qorinchasi, undan keyin ko'krak va yelkachalari. Agar quyoshda turishga o'rganib qolgan bo'lsa, yozda uni valang'och qilib, biroz olib yursangiz ham bo'ladi. Sog'lam chaqaloqqa ona sutidagi va quruq sut qorishmasidagi mavjud D vitaminining kichik



ulushi aslida yetarli. Biroq chaqaloqda dastlabki raxit alo-matlari paydo bo'lsa, bular: qattiq terlash, soch to'ki-lishi, ensasining taqirlanishi, chinqirib yig'lashi, no-tinch uyqu, psixomotor rivojlanishda orqada qolishi, bunday paytlarda bolalar shifokoriga murojaat qilishni unutmang.

Shuni bilingki, D vitaminining ko'payib ketishi giperkalsiyemiyaga olib keladi. Bu esa uning aqliy qobili-yatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sizda sovuqqonlik, toliqish va g'amginlik paydo bo'lsa

Ko'z yorigandan keyingi zo'riqish ba'zan gorizontaal muvozanatning buzilishidan kelib chiqadi. Natijada g'am-ginlik, toliqish alomatlari yuzaga keladi. Buning boshqa sabablaridan biri ayollar chaqaloq uch oygacha to'lganda jismoniy toliqadi va deyarli o'zlariga e'tibor bermay qo'yishadi. Ayrim yosh onalar ko'p o'ylab, bo'lal- bo'lmasga yig'laydi, asabiylashadi va janjalkash bo'lib qoladi.

Bunday holatlarni iroda, sabr, toqat, shukr bilan yengish oson kechadi. Qarang, farzandingiz o'syapti. Chaqalog'ingizga avval qanday qaragan bo'lsangiz, o'shanda qarayvering, ammo ayni vaqtda har kuni yarim soatdan yoki haftasiga bir soatdan 2 marta o'zin-gizning oromingiz uchun ham vaqt tejab boring. Birinchi galda turmush o'rtog'ingizni yordamga jalb eting.

Chaqaloq tug'ilganidan boshlab uyingiz sizga qamoq-xonaga aylanib qolganday tuyilishi mumkin. Shu bois siz uchun eng yaxshi dam — uydin tashqarida vaqt o'tka-zishdir. Chaqaloq uxlaganda o'zingizni ovuting. Buning uchun o'zingizga eng yaqin insonlar bilan telefonda gap-lashing (suhbat sizga juda kerak!), maslahat so'rang, yangi qiziqarli kitob o'qing, qomatingizni rostdash bilan shug'ullaning va hokazo.

Chaqaloq parvarishida otaning ishtiroki

Ko'pgina ayollar bola uch yoshga yetguncha ota kerak bo'lmaydi, deb o'ylashadi. Keyin, nima uchun otaga bo-lal kerak bo'lmay qolibdi, deb hayron bo'lishadi. Ota-niing sovuqqonligi sababi shundaki, ona bilan bola mus-tahkam juftlikka aylanadi, ota esa ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Otani „badarg'a“ qilish zamirida oilada vazifalar-niing almashinuviga ruhiy tayyorgarlik yotadi. Bunda ota-niing chaqaloqqa nisbatan rashki ham, siz uchun dunyoda eng qimmatli zot bo'lgan bolani asrashdagi xavotir ham bor. Bu xavotirlar bartaraf etilgach, kichikintoyingizga ota mehnog'lik zarur ekanligi va otasi uni juda ham yaxshi ko'rishini ko'rib suyunasiz va yengil tortasiz.

Agar otaga chaqaloqni qanday cho'miltirib, yo'r-gaklashni o'rgatsangiz, u buni jon deb qabul qiladi. Bola bilan sayr qilish otaga lazzat bag'ishlaydi. Shu tariqa ota bilan bola o'rtasida umumiy bog'lanish yuzaga keladi. Otaning mehribon nafari bola terisiga singadi, birinchi





tabassumini ilg'aydi, xuddi ona mehri kabi chaqaloqqa ota mehri ham nechog'lik zarurligini his etadi. Onaga teng kelib bo'lmaydi, albatta, ammo uyg'unlik uni to'ldiradi, bu axir oila-ku!

Uqalash

Hayotining ikkinchi oyidan boshlab, shifokor ko'rsatmasi bilan bolangizni uqalashni boshlasangiz bo'lmaydi. Bunda chaqaloq mushaklari mustahkamlanadi. Ammo uqalashning ham o'ziga yarasha qoidalar bor.

Birinchidan, agar chaqaloq kasal bo'lsa, butunlay sog'ayib ketguncha sabr qiling.



Ikkinchidan, uqalash vaqtini tanlang. Eng yaxshisi mashg'ulotni ertalab, bolani ovqatlantirishdan bir soat oldin yoki undan ikki soat keyin, 20–22 °C da, yorug', yaxshi shamollatilgan xonada o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, chaqaloq terisiga ehtiyot bo'ling, tir-nadi yubormang. Mashg'ulotlarga kirishar ekansiz, qo'lingizni sovunda yaxshilab yuving va krem surting, toki teringiz silliq bo'lsin. Soat, bilaguzuk, uzuk va chaqaloqni tirnashi mumkin bo'lgan buyumlarni yechib qo'ying. Piroqlaringizni kalta qilib oling. Eng yaxshisi, bolani bi-rinchi uqalashingizda mutaxassis bilan maslahatlashganingiz ma'qul.

Koptokda mashq

Katta puflangan koptokni oling va ustiga taglik to'rt-shang. Dastlabki holat — chaqaloq qorni bilan yotadi; oyoqlari „baqa panjasi“ shaklida ochilgan va koptokka qisil-gan bo'ladi. Yordamchingiz chaqaloq oyoqlarini shu holatda tutib tursin, siz chaqaloq kaftlarini qo'lingizga oling-da, o'zingizga qarab torting. Keyin uni dastlabki holatga qaytaring. Bu mashqni 10 marta takrorlang.

I. Birinchi mashqdagi dastlabki holat. Yordamchingizdan chaqaloq kaftlarini koptokka bosib turishni iltimos qiling. Chaqaloq tovonchalarini qo'lingizga oling va chaqa-



loqni koptok ustida pastga qarab aylantiring, tovonlarini stolning tekis yeriga qo'ying. Chaqaloq tanasi koptok ustida qolaversin, siz uning butun og'irligini tovoniga tashlashini kuzatib borasiz. Bu ishini 10 marta takrorlang.

2. Birinchi mashqdagi dastlabki holat. Chaqaloqning qo'llarini o'z qo'lingizga oling, chaqaloq ochiq kaftlari bilan stol yuzasiga tegib tursin. U peshanasini urib olmasligini kuzating! Bu mashqni ham 10 marta takrorlang.

3. Chaqaloqni koptok ustiga chalqancha yotqizing va biqinidan ushlab, u tomondan bu tomonga va oldinga-orqaga 10 marta harakatlantiring. Bu mashq chaqaloq mushaklarining yozilishiga yordam beradi. Chaqaloqni koptok ustiga biqini bilan yotqizib, chaqaloq tanasi o'qib bo'ylab bir tekis chayqating. Mashqni 10 marta takrorlang.

Bu mashqlar chaqaloqqa keyingi uqalashlarda yozilishiga va yengillashishiga yordam beradi.

Qornida emaklatish

Bola qorniga yotqiziladi. Yordamchingiz chaqaloqni qo'llaridan, siz oyoqchasidan tuting. Yordamchingiz chaqaloqning o'ng qo'lini oldinga cho'zsin va kaftlarini stol ustiga bossin. Siz chaqaloqning chap oyog'ini eging va uni qorniga itaring. Keyin chaqaloqning chap qo'li va



o'ng oyog'ini ham shunday qiling, shundan keyin oldingi harakatga qayting. Shu tariqa 10—12 ta „emaklash“ harakatini bajaring. Agar bolangiz boshini yaxshi tutolmasa, yana bitta yordamchi kerak bo'ladi. U kaftlari bilan chaqaloq boshini yon tomondan shunday tutib tursinki, chaqaloq boshi o'rtacha chiziqli tursin.

Oyoqlari bilan nariga turtish

Bolangizni chalqancha yotqizib, kaftlaringizni oyoqlari kaftlariga zich qo'ying: u sizning qo'llaringizdan o'zini olib qochadi (koptokcha bilan ham shunday qilish mumkin) va to'siqni darhol itarib yuboradi. Bu mashq chaqaloq oyoqlarining tayanch vazifasini rivojlantiradi va mushaklarini qotiradi.



Tik turish mashqi

Buning uchun chaqaloqning oyoq ostlari qattiq yuzaga tegib turishi kerak. Agar bolangiz boshini tuta olmasa, ensasidan ikkala qo'lingizning ko'rsatkich va o'rtacha barmoqlari bilan tutib turing. Shunda u, odatda, bukuk turadigan tizzalarini to'g'rilab, hatto raqsga ham tushib beradi. Bu mashq oyoq kaftlari vazifasini kuzatib beradi.

1—36 Sh. Shomansurov va boshq.

chaytiradi, oyoq mushagini mustahkamlaydi. Bolangizni tutib turgan holda ohista o'zingiz tomonga eging, u o'zi bir nechta odim tashlaydi. Shu tariqa qadam tashlash refleksi kuchayadi. Bu esa bolaning erta yurib ketishiga yordam beradi.

Umurtqani bir yonga egib tiklash

Bola yonboshi bilan yotqiziladi. Bir qo'lingiz yordamida uni oyoqchasidan ushlab turing, boshqa qo'lingiz bilan esa kerilgan o'rta va ko'rsatkich barmog'ingizga o'zgarib bosim berib, bo'yindan pastga umurtqa bo'ylab o'ngdan va chapdan 1 sm cheklangan holda bir tekis va shoshmay yurgizib o'tasiz, bunda umurtqa biroz egiladi. Mashqni o'ng va chap biqinda navbati bilan bajaring. Bu mashqlar orqa va dumba mushaklarini yaxshi mustahkamlashga, umurtqa fiziologik egilishlarining yuzaga kelishiga va qomati to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Shunday mashqlardan yana biri — chaqaloq qorni bilan yotadi. Umurtqadan 1 sm o'ngga cheklanib, balanddan pastga qarab, ko'rsatkich barmog'ingizni yurgizib chiqasiz. Bunda chaqaloq tanasi chapga „yoysimon“ shaklda egiladi.



Kutubli shu holatni umurtqaning boshqa tomonidan takrorlangan „yoysimon“ o'ng tomonga o'tib qoladi.

Yuqori yelka muallaq holda

Chaqaloqni qorni bilan yotqizasiz. Agar u boshini to'xtatib yoki ushlashga harakat qilsa, uni qorni bilan shunday yotqizingki, boshi, yelka usti va qo'llari stoldan cheklangan bo'lsin. Chap qo'lingiz bilan orqasidan tutgan-chap uni yuziga asta bosing. Shunda u boshini, yelkasini ko'taradi va oldinga qaraydi, qo'llarini to'g'rilaydi, ularni o'zining oldiga tortib oladi. Chaqaloq bu harakatlarni o'tadurishi barobarida ularni murakkablashtirish mumkin. Bunda bolani erkalab turing, o'yinchoqlar ko'rsatib, o'ng qo'lingiz bilan orqasidan silang. Bu mashq bo'yin, tana, qo'l va oyoqlar mushaklarini mustahkamlaydi.

UCHINCHI OY UCHUN MASHQLAR

Qoringa aylantirish

Bu mashqni o'tkazish uchun bolani chalqancha yotqizing. Chap qo'lingiz bilan uning chap qo'lidan tutib, o'ng qo'lingiz bilan tizzadan pastini (boldirning

yuqorisini) ushlab turasiz. Avval chaqaloqqa o'yinchoqni ko'rsating, keyin o'yinchoqni stolning bir chetiga qo'ying (25—35 sm). Chaqaloq o'yinchoqning harakatini kuzatib ko'rib tursin. Holatni o'zgartirmay, ohista uni chap qo'lidan tuting, o'ng qo'lingiz bilan tizzadan pastni ushlab turasiz. Avval chaqaloqqa o'yinchoqni ko'rsating, ohista uni chap qo'lidan o'ngga tortasiz, keyin uning o'zi harakat qilib, bir yoniga aylanadi, keyin esa qorniga yotib oladi. Harakatni takrorlang, endi chap tomonga. Bunda qo'llar holatini o'zgartirasiz: o'ng qo'lingiz chaqaloqning o'ng qo'lidan tutadi, chap qo'lingiz uning oyoqlaridan ushlab oladi. Shunda umurtqaning mushak qoplamini mustahkamlanadi, orqa, ko'krak qafasi, qorin mushaklari qotadi.

Orqadan qoringa aylanish

Yordamchingiz chaqaloqni yotgan joyida o'ng qo'lini yuqoriga ko'taradi va shu holatda tutib turadi. Siz chaqaloqning chap qo'lchasini chap qo'lingizga oling, o'ng qo'lingiz bilan esa chaqaloqning o'ng sonidan tutasiz. Yordamchingiz (agar dadasi yordam bersa, juda yaxshi) cho'zilgan o'ng qo'li kaftini stolga bosadi, barmoqlarini yoyadi. Siz o'ng qo'l ustidan uning chap qo'lini oshirib



ustidan. Shunda chaqaloq qorniga burilib yotadi. Yonga chaqaloq 10 tadan burilishini amalga oshirasiz.

Oyoqlar muallaq holda

Chaqaloq'ingizni shunday chalqancha yotqizingki, uning oyoqlari tizzagacha tayanchsiz bo'lsin. Chaqaloqning yon tomoniga turib, uni qorni tepasidan tutib tuting, pastdan esa tizzalaridan tuting. Vaqti bilan mashqni takrorlab oling: oyoqlari 1—2 soniya havoda to'la turgan tursin. Bu harakatlar qorin va oyoqlar mushaklarini mustahkamlaydi.

Quyidagi hollarda shifokorga murojaat qiling:

Ikki oyligida:

1. Chaqaloq kulmasa va yuz ifodasini o'zgartirmasa.
2. Odatdan tashqari qattiq qo'rqa yoki odamlarga qoqqanisa, baland tovushlarga e'tibor qilmasa.
3. Harakatlanayotgan buyumlarni kuzatmasa.
4. Agar o'yinchoqlarni ushlay olmasa.

Uch oyligida:

1. Farzandingiz boshini o'zi tutib turolmasa, harakatlanayotgan narsani, atrofini kuzatolmasa.
2. Qo'lini qiziqitgan narsalarga yo'naltira olmasa.
3. O'ziga jalb qildirishga harakatlanib, ovozlar chiqarmasa.

Ikki oylik bola rivojlanishini (migdoriy) baholash

2-jadval

№	Ko'rsatkich	3	2	1	0
1	Mulogotga kirishuvchanlik	Uxlashi va uyg'onishi aniq vaqtda bo'ladi. Qorni to'q va tagi quruq bo'lsa ham tez uxlamaydi, uyg'otlik paytida tinch, mulogot qilayotgan kishiga kulib qaraydi	O'ziga jalb qilishga intilib qiyqiradi, chiqaradi har xil tovushlar	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Atrofda qilargacha reaksiyasi yo'q yoki 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi
2	Tovush reaksiyalari	O'ziga jalb qilishga intilib qiyqiradi, chiqaradi har xil tovushlar	Tovushlarni kam chiqaradi, qiyqirishi nisbatan kamroq	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Tovushlarning umuman yo'qligi
3	Shartsiz reflekslar	Hamma shartsiz reflekslar simmetrik chiqiradi, ammo har doim emas	Hamma shartsiz Avtomatik qadam qo'yish va tik tush reflekslari-tush reflekslari-susayishi yoki reflekslarning yengil asimmetriyasi	Hamma shartsiz reflekslar chiqiradi yoki ba'zilar doimiy emas, ba'zilar kuchli darajada namoyon bo'ladi	Oral avtomatizm refleksidan tashqari, hamma reflekslar kuchli darajada namoyon bo'ladi yoki umuman chiqirilmaydi

4	Mushaklar tonusi	Qo'llarni yelka bo'g'im-larida simmetrik harakatlantiradi va gorizontal sohada bemalol ko'taradi, passiv harakatlarda yengil qarshilik kuzatiladi			Passiv harakatlar hajmining oshganligi yoki ularning asimmetriyasi
5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Boshini yon tomonga harakatlantirganida shu tomondagi qo'lli yoziladi	Boshini yon tomonga lanitirganda „qilich-boz“ holati doimo kuzatilmaydi, spontan ravishda yo'qoladi	Qo'llichboz“ holati doimo va uzog vaqt ushlab turadi	Passiv harakatlar hajmining oshganligi yoki ularning asimmetriyasi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yotib, boshini ma'lum vaqt ushlab turadi, vertikal holatda esa — bu holat ba'zan kuzatilmaydi	Vertikal holatda boshini ko'taradi, lekin shu holatda tura olmaydi	Qornida yotib boshini ko'tara oladi, lekin shu holatda tura olmaydi	Passiv harakatlar hajmining oshganligi yoki ularning asimmetriyasi
7	Sensor funksiyalar	Gorizontal holatda yotganida harakatlana yotgan jismlarni kuzatadi, qulog'iga chalingan tovushlarga e'tibor berishni boshlaydi	Jismlar, o'yin-choqlarga e'tibor qiladi, lekin tez chalg'iydi, tovush-gumon	Harakatlana yotgan jismlarni kuzatishi doimiy emas yoki umuman e'tibor qilmaydi	Harakatlana yotgan jismlarni kuzatmaydi va e'tibor qilmaydi

2-jadvalning davomi

8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Kuzatilmaydi	Ularining soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalarining soni 6 tadan ko'p va ular ko'pincha yuz sohasida joylashgan	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki og'ir tug'ma nuqsonlar kuzatiladi
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'ilaylik, ptoz, yuz asimet- -holatini o'zgaritir- ganda "Grete" simptomining kuzatilishi	G'ilaylik, "Grete" simp- tom, nistagm, bulbar yoki pseudobulbar simptomlarning kuchli darajada namoyon bo'lishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi
10	Patologik harakatlari	Kuzatilmaydi	Ba'zida bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Shaytonlash xurujlarining kuzatilishi	

№	Ko'rsatkich	1	2	3	4
1	Muloqotga kirituv- chanligi	Uzoq vaqt uyg'oq holda bo'ladi, atrofdagilarga qiziqish bilan qaraydi	Uyg'oqlik payti qisqa yoki atrofdagilarga qiziqishi juda sust	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Atrofdagilarga qiziqishi sust, doimo uyqu paytida
2	Tovush reaksiyalari	O'ziga jalb qildirishga harakatlantirib, ovozlari chiqaradi, ashulasimon tovushlar paydo bo'ladi	Tovushlarning endi paydo bo'lishi yoki ovozi chiqarishi sust	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi yoki ba'zilarining kuchayganligi	Tovushlarning yo'qligi
3	Shartsiz reflekslar	Hammasi shartsiz reflekslar so'na boshlaydi, oyoq bosish va avtomatik qadam qo'yish reflekslari yo'qoladi	Ba'zi shartsiz reflekslarning so'namasligi yoki reflekslarning yengil asimmetriyasi	Hammasi shartsiz reflekslar chiqariladi, ba'zilar kuchygan	Oral avtomatizm refleksidan tashqari, hammasi reflekslar oshgan yoki umuman chiqarilmaydi
4	Mushaklar tonusi	Qo'llarini yon tomonga va gorizontal sohagacha ko'taradi, passiv harakatda yengil qarshilik kuzatiladi	Passiv harakat hajmining oshganligi yoki ularning asimmetriyasi yoki oyog'larini yon tomonga qiyinlik bilan ko'taradi	Passiv harakat hajmi oshgan yoki kuchli darajada cheklangan	Tananing opistotonus, qumbaton yoki qumbaga holatida kuzatilishi

Uch oylik bola rivojlanishini (midoriy) baholash

9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'ilaylik, ptoz, yuz asimmetriyasi yoki o'zgarirganda Grete simptomining kuzatilishi	O'zgarishlar yo'q	Ba'zida bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Doimo bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Shaytonlash xurujlarining kuzatilishi
10	Patologik harakatlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'ilaylik, ptoz, yuz asimmetriyasi yoki o'zgarirganda Grete simptomining kuzatilishi	O'zgarishlar yo'q	Ba'zida bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Doimo bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Shaytonlash xurujlarining kuzatilishi

3-jadvalning davomi

5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik refleksi)	Boshni yon tomonga burganida shu tomondagi qo'ling yozilishi kuzatiladi	Boshni yon tomonga burganida „qilichboz“ holati doimiy emas, spontan ravishda so'nadi	Qornida yotganida „Qilichboz“ holati doimo va uzoc vaqt kuzatiladi	Bola tanasini doimo „qilichboz“ holatida bo'lishi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yotib, o'tkir burchak ostida bukilgan yelka sohasiga tiraladi, vertikal holatda boshni yaxshi ushladi	Vertikal holatda boshni yaxshi ushlamaydi, bukilgan yelka sohasiga ishonchsiz tiraladi	Qornida yotganida yelka sohasiga tirala olmaydi yoki boshni yaxshi ushlay olmaydi	Qornida yotganida boshni ko'taradi, lekcin ushlab turmaydi
7	Sensor funksiyalar	Harakatlarnayotgan jismlarni bemaol kuzatadi, ovoz chiqayotgan tomonga boshni buradi va qo'lini qiziqitgan narsalarga qarab yo'naltiradi	Yaqinidagi matolar, jismlarga qo'li bilan tegib ko'radi, lekcin qiziqitgan narsalarga qo'lini yo'naltirmaydi yoki ovoz chiqayotgan tomonga boshni doimo burmaydi	Harakatlarnayotgan jismlarni doimo kuzatmaydi, ovoz chiqayotgan tomonga gumonlik bilan javob qaytaradi yoki qo'llarini bir-biriga tekizib ushlamaydi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi, harakatlarnayotgan jismlarni kuzatmaydi, reaksiyasi yo'q
8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Kuzatilmaydi	Umumiy soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va ular ko'pincha yuz sohasida joylashgan	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki og'ir tug'ma nuqsonlar kuzatiladi

3-jadvalning davomi

To'rt, besh va olti oylik chaqaloq nimalarga qodir?

To'rt oylikdan besh oylikkacha chaqaloq ham alohida, ham birikmali undoshli tovushlarni talaffuz qiladi: „a“, „ah“, „o“, „ee“, „eh“. Siz bilan „suhbat“ o'tkazishi, tovushlar bilan almashinishi mumkin, yaxshigina „chuldiraydi“. Uning nutqida endi, asosan, ochiq bo'g'inlar ishtirok etadi: „ha“, „ma“, „ba“. U siz bilan oldin talaffuz qilib o'rgangan bo'g'inlarni takrorlaydi. Ovozining yaxshi taniydi, ovozingizdan jiddiy va erkalash ohanglarini farqlaydi. Oynadagi aksda o'ziningina emas, sizni ham taniydi. Ovqatli (qorishmali) shishani so'rish uchun o'zi ushlaydi.

Oyoqchalariga qiziqish paydo bo'ladi. Orqasidan yonboshiga o'zi burilib oladi. Qorniga ag'darilib olmoqchi bo'ladi-yu, lekin hozircha bunga qanday harakat qilish kerakligini bilmaydi; aylanib olishga harakat qiladi. Agar uni karavotda qarovsiz qoldirsangiz, u yiqilib tushishi mumkin. Begona odam bordanini o'rganadi (sochlarini yulqiydi, burnidan tortadi, yuzlarini silaydi...). Katta odam tizzasida mustaqil o'tira oladi.

Besh oylikdan boshlab chaqaloq o'yinchoqlar o'ynaydi, qoshiqdan berilgan ovqatni yaxshi yeydi, or-



qasidan qorniga ag'darila oladi. Qornida yotganida tiklangan qo'llariga tayanib, gavdasini biroz ko'taradi.

Olti oylik bola rivojlanishda durustgina sakrash qiladi. U jisman kuchliroq bo'ladi, mustaqil o'tiradi, yangi o'yinchoqlarni og'zida sinab ko'rmaydi, balki uzoq qarab, qo'lida aylantirib ko'radi. Hazilni tushuna boshlaydi: unga kulgili tuyilgan biron narsadan kulishi mumkin. Siz bilan mazza qilib „chapak-chapak“ o'ynaydi, stolni shapatilab childirma chaladi. Ikkala qo'lidan tutib turilsa, u uzoq tik turishi va og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga solishi mumkin, emaklashni o'rgana boshlaydi.

Quyidagi hollarda shifokorga murojaat qiling:

1. Bolangiz oyoqlari bilan pol yoki karavot ustida siltana olmasa.
2. Chaqaloqning qo'llarida darmon kam bo'lib, ularni siltalay olmasa.

Ovqatlanish tartibi

To'rt oylikdan besh oylikkacha chaqaloq hamon har uch soatda ovqatlanadi. U tunda ko'proq uxlagani uchun yangi ovqatlanish tartibiga bimalol o'tsa bo'laveradi: kunduzi besh mahol, kechasi bir mahol.



Olti oylik bolani tunda ovqatlantirmasa ham bo'ladi. Bolangizni tartibli ovqatlantirish uchun shifokor bilan maslahat qilib turish maqsadga muvofiqdir.

Sayr



Sayr chog'ida bola endi uxlamasa ham bo'ladi, atrofini tomosha qilishga intiladi, shu bois sizga sayr aravachasini o'zgartirishni maslahat beramiz. Bola sayr aravachasida bemalol o'tira olishi kerak. Orqa suyanchig'i boshqariladigan bo'lsa, chaqaloq aravachada yotib bemalol uxlashi uchun butunlay yoyib qo'yiladi. Aravachada xavfsizlik kamarlari bo'lishi muhim, chunki bola biror narsaga intilib, aravachadan yiqilib tushishi mumkin-da. Bolaning yuzini ko'proq o'zingiz tomonga (chunki u sizga qarashni juda yoqtiradi) yoki qarshi tomonga qaratib olib yurish uchun yig'ma dasta kerak bo'ladi.

Qo'lni og'izga olib borish

Bolangizning endi qiziqishi ortib, hamma narsani og'ziga olib boradi va 4 oyligida barmoqlarini so'radi. Qo'llari unga bo'ysunishi, ularni pastga va balandga harakat qildirish, o'z ixtiyoriy barmog'ini og'ziga tiqishi uning uchun kashfiyot hisoblanadi. Biroq, **barmoq so'rish yomon odat!** Gap shundaki, muttasil og'izda turgan barmoq past-



ki va yuqorigi jag' shaklini o'zgartiradi, keyinchalik esa — tushning ham qiyshayishiga olib keladi. Bu odatni davolagandan ko'ra oldini olgan oson. Shu bois bola barmog'ini og'ziga olib borganini ko'rgan zahotingiz qo'lni olib qo'ying. Juda bo'lmaganda, agar barmoq so'rish davom etaversa, so'rg'ich olib bering, faqat yuqori qismi yassi bo'lgan anatomik so'rg'ich bo'lsin.

Chaqaloq bilan gaplashing

Asta-sekin bolangiz so'zlarni talaffuz qilishga tayyorlanadi. U bilan qancha ko'p gaplashsangiz, shuncha yaxshi. So'zlaringizni sekin va aniq talaffuz qilishga odatlaning. U har bir so'zni o'ziga singdirib olmoqchidek, kattalarning gapini diqqat bilan eshitadi. U tovush ohangini ham, baland-pastligini ham ziyoraklik bilan ilg'aydi. Musiqadan ta'sirlanishida ham farq bor. Sekin, muloyim musiqani tinch, diqqatini bir joyga qo'yib tinglaydi, ko'proq tez va sho'x kuylardan jonlanib, harakatlar qiladi. Mumtoz kuylarni yoki allani tinglab uxlash bolangiz asablarini tinchlantirib, tezroq uxlashiga imkon beradi.

Chaqaloqning uyquasi

Uch oylikdan to'rt oylikkacha bolalar 1,5—2 soatdan davom etuvchi to'rt martalik uyquga muhtoj bo'ladilar. Bunday paytda har bir bedorlik vaqti 1,5—2 soatni tashkil etadi. Ular tunda olti yoki yetti soat uxlaydilar. Olti-



yetti oylik bola tunda ko'proq, 10 soatgacha uxlaydi va u barcha tungi ovqatlanishlar bahridan o'tadi. Olti oylik bola kunduzi uch marta 2 soatdan uxlaydi.

O'yinchoqlar



Bola to'rt-olti oylikda ko'proq o'yinchoqlarga qiziqqa boshlaydi. Endi piramidalar, plastmassadan ishlangan yirik va rangdor jonivorlar, chayqalma o'yinchoqlar, rezina pufaklar, to'pchalar va kichik to'plar uni ko'proq qiziqtiradi. Ayniqsa, o'yinchoqlar qulay bo'lsin: yengil, o'rtacha kattalikda, oson to-

zalanadigan. Juda mayda o'yinchoqlar yoki kichik bo'laklarga bo'linadigan o'yinchoqlar to'g'ri kelmaydi, chunki bola ularni albatta og'ziga olib boradi va tiqilib qolishi mumkin. U olti oylikda yaxshigina emaklagani

hols unga manej olib berganingiz ma'qul. Bu bilan uning hayotini bexavotir qilgan bo'lasiz.

So'lak oqqanda

Chaqaloq to'rt oylik bo'lganda undan so'lak kuchli oqqa boshlaydi. Bundan xavotirga tushmang — so'lak oqishi kasallik emas, oddiy hol. U bir yilgacha davom etishi mumkin (goho sal ko'proq). Bolajoningiz bu paytda tishlari chiqishiga tayyorgarlik qiladi. Bolaga so'lak shimgich taqib qo'yning va kerak paytida uni almashtiring.

Cho'miltirish

Chaqaloqlarning cho'milishga munosabati ular rivojlanishiga qarab o'zgarib turadi. Agar bolangiz ilgari cho'milishga qarshilik ko'rsatgan bo'lsa, endi cho'milishdan



huzurlanadi. Uning boshini endi ilgariqday orqaga emas, oldinga engashtirib yuviladi. Ko'zchalarini achitmaydigan bolalar shampuni va sovunidan foydalaning.

Uqalash va badantartbiya qildirishga o'tish

Uqalash va badantartbiyaning oldingi mashg'ulotlariga quyidagi mashqlarni qo'shing.

Bolani chalqancha, qo'llari badani bo'ylab cho'zilgan holda yotqizing. Yordamchingiz chaqaloq o'ng qo'l-chasi kaftini uning tanasidan bir necha sm nariroqdan stolga bosib tursin. Bukilib va stoldan ko'tarilib ketmasligi uchun siz bir qo'lingiz bilan uning oyoqchalarini tutib turasiz va o'ng qo'lchasiga tayanib, o'tirishga undaysiz. Bunda chaqaloq gavdasi asta o'ngga og'adi, qo'li tirsagidan ozgina bukiladi. Shu tariqa bolani o'tirishga o'rgatasiz. U bu harakat yo'llarini o'zlashtirib olgach, u mashqlarni



yanada faolroq bajara boshlaydi. Olti oylikda sizning yordamingsiz o'zi o'tiradigan bo'ladi. O'ng qo'lga tayanti-rib, chap qo'lda bu mashqlarni 10 marta o'tkazing.

O'tirish



Bolangizni chalqancha yotqizib, boshmaldoqlarin-gizni chaqaloq kaftiga qo'yning. Shunda u biroz kuchanib, qo'lini bukadi, boshini ko'taradi va yelkasini stoldan uzib, o'tirishga harakat qiladi. Siz esa „qani, tur, tur“, deb dalda bering. Bu yerda aql-farosat ishga tushib, tug'ma harakat kuchayadi. Mashq badan va qo'l-oyoqlar mushaklarining oldingi guruhlarini rivojlantiradi.

Emaklatib turish

Bolani qorniga yotqizib, kaftingizni ko'krak ostidan qo'yning. Uni ko'taring, boshqa qo'lingiz bilan oyoqlarini tizza va son bo'g'imlaridan buking. Bu vaqtda yordam-chingiz chaqaloqning yoyilgan kaftlarini yelka kengligida stol ustiga bosadi.



Bu holatda bir daqiqacha turishga qo'yib bering. Muvozanat ta'siri ishlab chiqilmagan dastlabki paytda chaqaloq emaklashda qiynaladi, biroq keyinchalik bu barqarorlashadi. Bola olti oylikda to'rt oyoqlab bemalol emaklashga harakat qilishi kerak. Agar bu yoshda bola to'rt oyoqda mustaqil tura olmasa, u to shunga o'rganmaguncha shu mashqni davom ettiring.

Quyidagi hollarda shifokorga murojaat qiling:

1. Chaqaloqda haddan tashqari mushak faolligi bo'lib, moslashuvi yo'qolsa.
2. Beshinchi oyning oxirlariga kelib, chaqaloqni o'ynatib, kuldira olmasangiz.
3. U qornidan orqasiga burila olmasa.
4. Chaqaloq sizga yopishib, quchoqlay olmasa.
5. Olti oylikka kelib, hatto suyanganda ham o'tirolmasa.
6. Tovushga taqlid qilmasa.
7. Qo'shimcha ovqatni hazm qilmasa.
8. Atrofni yaqqol farqlab, onasini aniq tanimasa.
9. Qisqa so'zlarga o'xshash tovushlar chiqarmasa.

To'rt oylik bola rivojlanishini (midqorty) baholash

№	Ko'rsatkich	1	2	3	4
1	Muloqotga kirishuvchanligi	Atrofdagilarga qiziqish bilan ham qiziqish bilan qaramaydi	Atrofdagilarga qiziqish bilan qaraydi, lekin adekvat javob bermaydi	Atrofdagilarga qiziqish bilan qaraydi	Atrofdagilarga qiziqish bilan qaramaydi
2	Tovush reaksiyalari	Ashulasimon tovush - lar va kulgi paydo bo'ladi	Qiyqrishi imonatsiyali, jab qiliuvchi, lekin kulmaydi yoki ashulasimon tovushlar sust darajada rivojlangan	Ashulasimon tovushlar paydo bo'ladi	Ashulasimon tovushlar paydo bo'ladi
3	Shartsiz reflekslar	Moro refleksining alohida kompo - nentlari chaqiriladi	Passiv harakatda mushaklar qarshiligi yengil oshgan yoki kamaygan	Passiv harakatlar hajmini cheklangan yoki oshgan	Passiv harakatlar hajmini cheklangan yoki oshgan
4	Mushaklar tonusi	Aktiv va passiv harakatlar hajmining to'liq namoyon bo'lishi	Passiv harakatlar hajmini cheklangan yoki oshgan	Passiv harakatlar hajmini cheklangan yoki oshgan	Passiv harakatlar hajmini cheklangan yoki oshgan
5	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar
6	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar
7	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar
8	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar
9	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar
10	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar	Reflekslar

8	Stigmalar (tug'ma nudsonlar)	Kuzatilmaydi	Umumiy soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va ular ko'pincha tug'ma nudsonlar kuzatiladi	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki og'ir tug'ma nudsonlar kuzatiladi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'ilaylik, ptoz, yuz asimmetriyasi yoki g'ilaylik, simptomining g'artirganda Grefe tana holatini o'z - kuzatilishi	G'ilaylik, Grefe simptomi, bulbar yoki psevdobulbar sindromlarning kuchli darajada namoyon bo'lishi			
10	Patologik harakatlilar	O'zgarishlar yo'q	Ba'zida bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Doimo bezovtalik paytida titrash kuzatiladi			

4-jadvalning davomi

5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Boshini yon tomonga burganida shu tomondagi go'llining yozilishi doimiy emas	Boshini yon tomonga burganida "qilichboz" holati doimo kuzatilmaydi, spontan ravishda tez so'nadi	"Qilichboz" holati doimo kuzatiladi va uzoq vaqt saqlanib turadi	Bolada doimo "qilichboz" holati kuzatiladi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yo'tib o't - kir burchak ostida bukilgan yelka sohastiga tiriladi, go'llidan ushlaganda boshini ko'taradi, yon tomonga ag'dariladi, Landau refleksining yuqori qismi kuzatiladi	Qornida yo'tib o'tkir burchak ostida bukilgan yelka sohastiga tiriladi yoki yon tomonga ag'darilmaydi	Yelka sohastiga tirilmaydi yoki go'llidan ushlaganda boshini ko'tarmaydi, Landau refleksining sust chaqirtilishi kuzatiladi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi yoki qornida boshini yotganida boshini yaxshi ushlaymaydi
7	Sensor funksiyalar	O'yinchog'larga talpinmaydi, lekin go'lini shu tomonga yo'naltiradi, go'llarini tomosha qilmaydi, kelgan tomonga qaraydi	O'yinchog'larga talpinmaydi, lekin go'lini shu tomonga yo'naltiradi, go'llarini tomosha qilmaydi, ovoz kelgan tomonga qaraydi	O'yinchog, jismlarga go'lini yo'naltirmaydi yoki 2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Harakatlanayotgan jismlarni kuzatmaydi, tovushlarga reaksiyasi yo'q

4-jadvalning davomi

Besh oylik bola rivojlanishini (miqdoriy) baholash

5-jadval

№	Ko'rsatkich	3	2	1	0
1	Muloqotga kiritishuvchanligi	Atrofdagilar munosabatiga qiziqish yoki qo'rquv reaksiyasi bilan javob beradi	Ashulasimon tovushlar va kulgi paydo bo'ladi	Tovush chiqarishi sust yoki kulgining yo'qligi	Atrofdagilarga adekvat javob qaytarmaydi
2	Tovush reaksiyalari	Ashulasimon tovushlar va kulgi paydo bo'ladi	Birlamchi tovushning paydo bo'lishi yoki alohida qisqa tovushlarning kuzatilishi	Moro refleksining kuchli darajada namoyon bo'lishi yoki oral avtomatizm reflekslari	Tananing opisto-tonus, embriyon yoki qurpaga holatida kuzatilishi
3	Shartsiz reflekslar	So'rish refleks va Moro refleksining alohida komponentlari chaqiriladi	Moro refleksining to'liq chaqirilishi	Passiv harakatlarda hajmi cheklangan yoki oshgan	Tananing opisto-tonus, embriyon yoki qurpaga holatida kuzatilishi
4	Mushaklar tonusi	Passiv va ixtiyoriy harakatlarda hajmi-toning to'liqligi	Passiv harakatlarda oshishi yoki kamayishi	Passiv harakatlarda hajmi cheklangan yoki oshgan	Tananing opisto-tonus, embriyon yoki qurpaga holatida kuzatilishi

5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Kuzatilmaydi	Boshini yon tomonga buraganida "qilichboz" holati doimo kuzatilmaydi, shu tomonga buraganida yozilishi tomondagi qo'lining doimiy emas	Boshini yon tomonga buraganida "qilichboz" holati doimo kuzatilmaydi, spontan ravishda tez so'nadi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi yoki yelka bo'g'imiga tirilmaydi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yotgan holda qo'llariga bemalol tiriladi, qo'llaridan ko'targanda tanasini ko'taradi, yonboshiga bemalol ag'dariladi	Qornida yotib o'tir burchak ostida bukilgan yelka bo'g'imiga tiriladi yoki bir qo'lga tirilmaydi	Qornida yotib o'tir burchak ostida bukilgan yelka bo'g'imiga tiriladi yoki qo'llardan ko'targanda tanasini ko'tarimaydi yoki yonboshiga ag'darilmaydi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi yoki yelka bo'g'imiga tirilmaydi
7	Sensor funksiyalar	Nigohini bir jismdan ikkinchi jisimga oladi, o'yincholarga talpinib, ularni ikki qo'llab oladi, qo'lli va o'yincholarni og'ziga olib boradi, onasining ovoz intonatsiyasiga qarab adekvat reaksiya qiladi	O'yincholarga talpinadi, lekin ishonchsiz ushlaydi yoki nigohini bir jismdan ikkinchi jisimga olmaydi, qo'llarini tomosha qiladi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi yoki o'yincholarni ushlay olmaydi va og'ziga olib bormaydi yoki onasining ovoz intonatsiyasiga qarab adekvat reaksiya qilmaydi	O'yincholarga talpinmaydi va ovoz chiqarayotgan joyni farqlay olmaydi yoki doimo qo'llarni tomosha qiladi yoki 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi

8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Kuzatilmaydi	Umumiy soni 5-6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va ular ko'pincha yuz sohasida joylashgan	nuqsonlar yoki og'ir tug'ma 8 tadan ko'p	Stigmalar soni kuzatiladi
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'illilik yoki yuz asimmetriyasi	G'illilik, Grefe simptomlari, mistagm, bulbar yoki pseudobulbar sindromlarning doimo kuzatilishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash
10	Patologik harakatlar	O'zgarishlar yo'q	Ba'zida bezovtalik paytida titrash kuzatiladi	Doimo bezovtalik paytida yoki o'yinchog'larini ushlaganda gavdaning yoki tilning titrashi kuzatiladi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash

Olti oylik bola rivojlanishini (miqdoriy) baholash

№	Ko'rsatkich	3	2	1	0
1	Mulqotga kishuv- chanligi	Atrofni yaqol farqlaydi, onasini aniq taniydi, atrofdagi jismlarni yaxshi kuzatadi	Onasini aniq tanimaydi, atrofda- gilarni farqlamaydi yoki jismlarni yaxshi kuzatmaydi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Atrofdagilar bilan qiziqmaydi
2	Tovush reaksiyalari	Qisqa so'zlarga o'xshash tovushlar chiqaradi	Tovushlarni kam chiqaradi	Ashulasimon tovushlar ovoz chiqarish bilan	Alohida qisqa unli yoki ashulasimon tovushlar chiqaradi
3	Shartsiz reflekslar	So'rish refleksidan tashqari barcha reflekslar yo'qoladi	Moro refleks alohida komponentlarining sust namoyon bo'lishi	Oral avtomatizm reflekslari yoki Moro refleksining doimo kuzatilishi	Bir qancha shartsiz reflekslarning chaqirtilishi
4	Mushaklar tonusi	Passiv va ixtiyoriy harakatlar hajmining to'liqligi kuzatiladi	Passiv harakatlarda qarshilikning yengil kamayishi	Passiv harakatlar hajmi oshgan yoki cheklangan	Tana holatining embriton yoki qur- baqa ko'rinishida bo'lishi

8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Kuzatilmaydi	Umumiy soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va 8 tadan ko'p yuz oltir nuqsonlar kuzatiladi	Stigmalar soni 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Doimo bezovtalik paytida yoki o'yin-choqlarni ushlaganda titrash yoki tilning titrashi kuzatiladi	10	Patologik harakatlilar	O'zgarishlar yo'q
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil e'tilaylik yoki yuz asimmetriyasi	O'tilaylik, Grefe simptom, nistagm, bulbar yoki psevdobulbar sindromlarning doimo kuzatilishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi				

6-jadval davom

5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Kuzatilmaydi	Boshini yon tomonga burganida, shu tomondagi qo'lning yozilishi doimiy emas	Boshini yon tomonga burganida „qilichboz“ holati doimo kuzatilmaydi, spontan ravishda tez so'nadi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	O'yinchog'larni tortib olmaydi	7	Sensor funksiyalar	O'yinchog'larni bemalol har tomondan o'lada qo'llida narsa ushlab turadi, ovoz kelgan tomonga o'g'irladi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Qornida yotib bir qo'lga tiriladi, bemalol qornidan beliga dumalaydi, qo'llaridan ushlaganda o'tiradi, pastki Landau refleks kuzatiladi	Yonboshiga ag'darladi, lekin qorniga ag'darila olmaydi yoki bir qo'lga tirilmaydi yoki qo'llardan tortganda o'zini ko'taradi, lekin o'tirmaydi	Qornida yotib yelka bo'g'imida buktilgan qo'lga tiriladi yoki yonboshiga ag'darlamaydi, qo'llardan tortganda faqat boshini ko'taradi yoki 2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	O'yinchog'larni tortib olmaydi			

6-jadvalning davomi

ILK QADAMLAR

Yetti, sakkiz va to'qqiz oylik bola nima qila oladi?



Endi bolajoningiz ancha faol bidirlaydi. Imo-ishoralar yordamida „gaplashadi“. Kattalarga ergashib, o'rgangan so'z va bo'g'inlarini takrorlaydi. Bolajoningiz ismini biladi, chaqirsangiz burilib qaraydi. Egalik, oddiy va buyruq so'zlarni tushunadi (ma, qo'y, ber, ol va boshqalar). Kat-talarning iltimosiga ko'ra ayrim harakatlarni bajaradi: „qo'ling-ni ber-chi“, „qo'lingni silkit“, „xayr-xayr“ va h.k.

O'yin vaqtida ikki buyumni bir-biriga urib o'ynashni, o'yinchoqni quti ichiga otishni va quti ichidan olishni yaxshi ko'radi. Tanish o'yinchoqlarni bilib oladi. Ovqat vaqtida barmoqlaridan foydalana-di: yirik bo'laklarni qo'lida ushlaydi, qoshiq bilan yeyishga o'rganadi. Ota-onasi yonida yo'qligini tushuna-di va bundan xafaligini anglatadi. Ko'zga tashlanma-gan buyum aslida borligini biladi. Masalan, agar yuzin-gizni kaftingiz bilan yashirsangiz, bola avvaliga „oyim qayoqqa ketdiykin?“ deb o'ylaydi, keyin yuzingizdan kaftingizni olib tashlab, u sizni „topadi“.

Eng asosiysi: u yetti va sakkiz oylik bo'lganda biron joyni ushlab (manej, devor, stol...) o'zi tura boshlaydi va

to'qqiz oyligida bema'lol emaklaydi, goho ikkala qo'lidan tutib turganda yura oladi.

Tug'ma va doimiy tishlar



Bolaning tug'ma sut va doimiy tishlari bo'lib, ular ma'lum muddatda yorib chiqadi. Dastlabki chiqadigan tishlar sut tish deb ataladi, chunki ular emizlikli vaqtda paydo bo'ladi. Ularning soni 20 ta bo'ladi. Eng avval pastki jag'da ikkita asosiy tish paydo bo'ladi. Sut tishlarining chiqish muddati nisbiy: odatda, ular 6 oylikda, ko'proq 7 oylikda, goho 10 oylikda va hatto bir yoshda chiqadi.

Ko'pincha tish yorishi bolalarda kasallanishga sabab bo'ladi: bola yig'loq bo'lib qoladi, milki shishib, ovqat yemay qo'yadi. Ayniqsa, tunlari xarxashasi ortadi, qusi-shi, ichi ketishi mumkin, harorati ko'tariladi. Ammo bu „tish bilan bog'liq“ degan xulosa bilan kifoyalanmang. Sababi boshqacha bo'lib chiqishi ham mumkin. Uni topishga va bartaraf qilishga harakat qiling. Goho chaqaloqda birinchi tishcha chiqqanini ona bilmay ham qoladi. Birinchi tishlarni tozalashga shoshilmang, tabiatning o'zi buning g'amini yeb qo'ygan, chaqaloqdan kuchli so'lak ajralib, u og'iz bo'shlig'ini tozalaydi.

Ovqatlanishga harakat

Ovqat masalasi bo'yicha pediatrik maslahatini olib, taxminiy menyu tuzilgani ma'qul. Bolangiz yetti oylikda qoshiqni o'zi ushlamoqchi bo'ladi. Hali esi kirmagan

boladan o'zini toza tutishni kutish qiyin. Shuning uchun unga so'lakcha taqib qo'ying. Uning o'zi ovqatlanishni qiyin, shu sababli ham u bundan tez charchaydi va agar och bo'lsa ham ovqat yemay qo'ya qoladi. Shuning uchun unga alohida bir choy qoshiq bering, shu bilan chalg'iy qolsin, qo'lida to'g'ri ushlashni o'rgansin, siz esa boshqa qoshiq bilan ovqatlantiring. Shunda tezroq ovqatlanadi. Agar sakkiz oylikda bolangiz ikki mahal (ertalab va kechqurun) ko'krak sutini emsa yoki shishadan sut ichsa, bu yaxshi, ammo boshqa vaqtda shishani bermaganingiz durust.

Ovqatlanish kursichasi




Sakkiz oylikda bolangiz bemalol o'tira oladi, qoshiqni o'zi tutib, chaqqon ishlatadi. Endi u boshqalar qatorida o'zi ovqatlanadi. Uning tirishqoqligini qo'llab-quvvatlang va ovqatlanadigan kursicha

olib bering. Kursicha oson yuviladigan ashyo — yog'och yoki plastmassadan yasalgan bo'lishi mumkin. Unda taglik stolchasi, xavfsizlik kamari bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda u sirg'alib tushib ketishi mumkin. Kamarni bolaning oyoqlari oralig'idan o'tkazib, o'rindiq tagidan mahkamlab qo'yiladi. Bunday kursichada bola o'zini oilaning teng huquqli a'zosi deb his qiladi va mustaqillik sari ilk qadam qo'yadi.

So'rg'ich

Endi bolajoningiz faqat yotish oldidan so'rg'ich so'rishiga harakat qiling. Gap shundaki, bu yoshda bola dunyoni, atrofdagi narsalarni va ularning xossalarni,



g'iyosin, og'zi orqali biladi. Shu bois, agar uyg'oq vaqtida bolaning og'zi doim so'rg'ich bilan band bo'lsa, bu uning aqliy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolangiz yura boshladi...

Yetti-sakkiz oylikda bolangiz manej devorini ushlab o'zi tura oladi. Lekin tutib turgan suyanchig'idan ajralishga qo'rqqadi. O'tirish masalasi juda tez paydo bo'ladi — bir yoki bir yarim hafta kifoya. Sakkiz-to'qqiz oylik bola devor yoki mebelni ushlab, yurishni boshlaydi. Turishni, ayniqsa, yurishni o'rganigan bolaning tirishqoqligiga gap yo'q. Yurishni o'rganish vaqtida bola juda ko'p yiqiladi.

Lekin u o'ta tirishqoqlik bilan bu mashg'ulotni o'zlashtiradi. Chunki uning vazni hali kichik, shuning uchun muvozanatini yo'qotib yiqilganda ham, o'zi epcillik bilan tura oladi. Dastlabki vaqtda unga yordam berish uchun ushlagich yasang. Buning uchun enli va uzun mato oling (sochiq yoki choyshab bo'ladi) va uni bolaning qo'ltig'idan aylantiring. Bunda mato ko'krak va



qorinni mahkam o'rab olishi kerak. Ushlagich bo'lsa, bola kamroq yiqiladi. Uyingizda pol sirpanchiq bo'lmashligiga e'tibor qiling. Yaxshisi, bolangiz yurishni gilamda o'rgansin. Avvaliga poyabzal zarur emas: bolaning oyog'i poyabzalsiz yaxshi shakllanadi. Qishda esa qalin to'qima paypoq yoki yumshoq kiygiz boshmoqcha kiydirib qo'ying. Yilning issiq mavsumlarida esa ko'proq oyoq-yalang yuraversin. Ko'chaga sayr qilishga olib chiqqaninigizda esa, mavsumga qarab oyoq kiyim kiydiring.

Xavfsizlik texnikasi

Bolangiz uyda bimalol o'ynab yura boshlaganida undan doim ko'z-quloq bo'lib turing! Bolangiz bir yarim yoshga to'lgunga qadar uyingizda harbiy holat hukm sursin. Stolning o'tkir qirralariga maxsus yopishtirgichlar, elektr rozetkalariga tiqin sotib oling. Sanchiluvchi va kesuvchi buyumlar (pichoq, qaychi, igna, to'g'na-g'ich...)ni berkitib qo'ying. Shisha va sinuvchi idishlar, mayda maishiy texnika (toster, fen va boshq.), pardoz-andoz buyumlari hamda dorilarni bola bo'yi yetmaydigan joyga qo'ying. Qaynoq ovqat va issiq choydan ehtiyot qiling. Ammo bu bolangiz hech qayerga kirmasin va hech narsani ko'rmasin degani emas. Uyingiz u uchun notanish olam va uni qancha tez o'rgansa, shuncha foydali. Lekin shuni unutmangki, unga hamma narsa qiziq! Agar siz bola uchun xavfli va o'zingiz uchun qimmatli buyumlarni yig'ishtirib qo'ysangiz, u uyda bimalol yurib atrofni o'rganadi. Axir, bolangiz sog'lig'i hamma narsadan qimmat. Shunday emasmi?...

Tozalik

Bolaning qo'llarini kuniga bir necha marta: ovqatlanishidan va uxlashidan oldin sovunlab yuvib turing. Cho'mlirayotgan vaqtingizda bolalar sovunidan foydalaning. Bolani qo'lda ovqati bilan aylanib yurishiga yo'l



qo'ymang. Bu turli xil ko'ngilsiz narsalarga sabab bo'lishi mumkin. Ovqatlanish vaqtida bee'tibor bo'lmang. Uxlaydigan karavotchasi toza bo'lishi shart. Bolani polda emaklab yurgan kiyimida to'shakka yotqizmang. Ayniqsa, bolangiz uxlaganda olib yotadigan o'yinchoqlarni albatta tozalab turing. Tirnoqlarini o'z vaqtida oling.

Tarbiya sirlari

Endi bolangiz ayrim oddiy, masalan, „qani kel“, „ovqatingni ye!“, „yur, ketdik“, „issiq“, „o'rningdan tur“, degan gaplarni tushunadi. Muloqot chog'ida shunday qilish kerakki, bola sizga quloq solsin. Qaysar va o'jar bo'lmasin. Ayrim olimlarning aytishlaricha, bolaning o'jar bo'lishiga goho ota-ona sabab bo'larkan. Masalan, ona yo kattalardan birortasi, bolaga o'yinchoq tutadi-da, qo'lini tortib oladi va: „berib bo'bman!“ — deydi. Aslida kulgili bo'lib ko'ringan bu holat qayta-qayta takrorlanishi yaxshilikka olib kelmaydi. Chunki bola hamma narsada kattalarga taqlid qilishga harakat qiladi va kelajakda xuddi shunday qiladi. Qaysarlikka panja orasidan qarab, siz, pirovardida, jismoniy kuchdan boshqa hech nimani tan olmaydigan erka, o'jar, o'zbilarmon bolani voyaga yetkazasiz. Keyinroq, bola tarbiyasida nimadir boy berilganini anglay boshlaganingizda esa vaqt o'tgan bo'ladi.

Kaltakdan bola qo'rqib turadi, lekin u ona (yoki ota)sinl yomon ko'rib qoladi. Bola tarbiyasida bir qancha qoidalar mavjud, ulardan unumli foydalanish kerak.

Birinchidan, tushuntirmay turib, bolaga hech qachon hech narsani man etmang. Man etish sababini hatto 7—9 oylik bolangizga ham tushuntirishga harakat qiling. Masalan, agar bola kitobni yirtsa, kitobni oling-da, asta deng: „Kitobni yirtish mumkin emas, chunki uni yirtsang, kitobsiz qolasan. Yomon tomoni shundaki, men senga boshqa bunday yaxshisini olib berolmayman“.

Ikkinchidan, bordi-yu, siz bolaga biror narsani taqilaydigan bo'lsangiz, hech qachon fikringizni yarim yo'lda o'zgartirmang. Chunki bola qo'lidan tortib olinadigan kitob (voqea ro'y bergandan sal kun o'tmay) unga qayta qaytib kelmasligi kerak. Mumkin emasm, demak mumkin emas, aks holda siz o'jar va injiq bolaning „yo'lini ochgan“ bo'lasiz.

Bolangiz yig'isining to'rt sababi

Garchi bu yoshdagi ko'pchilik bolalar ancha kam yig'lasalar-da, baribir bu bo'lib turadi. Kichikintoyning musibati shundaki, uning nutqi yo'q yoki rivojlanmagan va unga nima kerakligini har doim ham tushunavermaysiz. Bola yig'isi sababini bilishga va uni bartaraf etishga har doim harakat qiling. Bolangizning uzoq yig'lashiga, boz ustiga yolg'iz qolganda yig'lashiga aslo yo'l qo'ymang.

A. Qo'rqanida yig'lash

Bu yoshda bola qandaydir ma'lum narsadan, masalan, kiyim kiyishdan, changyutgich shovqinidan, bosh yuvishdan va h.k. qo'rqib yig'lay boshlaydi. Iloji boricha bolani qo'rqitadigan narsalardan ehtiyot bo'ling. Bolani qancha kam qo'rqitsangiz, uning qo'rquvi shuncha tez yo'qoladi.

B. Kutilmagan narsadan yig'lash



Bu yoshda bolada ko'pchilik odatlar paydo bo'ladi. Uyg'onganida, karavotchasid oldiga har doim oyisi ketishiga o'rganib qolgan bo'lishi mumkin. Bordi-yu, uning oldiga boshqa odam kelib qolsa, ishonavering — bola chinqirib yig'laydi. Agar bolaga issiq emas, sovuq sut aralashmasi berilmasangiz, u yig'laydi. Yoqmagani uchun emas, u buni kutmaganidan yig'laydi. Bolaga yot narsalar bilan birinchi tanishuv yig'i paydo qilishi mumkin. Bola ko'nglini bilishga va uning diqqatini o'ziningizga tortishga harakat qiling. U bu narsalarga xotirjam, to'g'ri munosabatda bo'layotganingizni ko'rsin. Shunda, siz orqali tajriba o'ttiradi.

D. Chorasizlikdan yig'lash

Bola hali gapirishni o'rganmaganidan, uni notanish kishi qo'liga olganini u yig'i bilan ifodalaydi. Yoki xonadan chiqib ketishingizni qanday man eta olsin? Uning o'z noroziligini namoyon etayotganda hushyor bo'lishga harakat qiling va shunda chinqirib yig'layotgan bolani ovutishingizga hojat qolmaydi.

E. Jahl va g'azabdan yig'lash

Bolalarda nochorlikdan yig'lash, odatda, bir yoshga yetganda qoladi. Uning o'rniga g'azab va jahldan yig'lash keladi. Uyingizni tadqiq qiluvchi qiziquvchan bola muttasil sizda g'azab uyg'otishga shay turadi. Uni muzlatgich eshi-

gidan bir necha marta sudrab olib ketganingizdan charchab ketasiz. Ammo nima uchun bunday qilmaslik kerakligini tushunib olishiga kamida bir-ikki oy kerak bo'ladi. Janjaldan qochish uchun uzoq vaqtgacha tegish mumkin bo'lmagan buyumlarni bola ko'zidan nari qo'ying.

O'yinchoqlar

Oldingi o'yinchoqlarga paxmoqli do'stlar qo'shiladi. Yettinchi oydan boshlab bolalarda mayda motorikani (barmoqlar harakati) rivojlantirish foydali. U vaqti kelib rasm chizish, xat yozish, hunarmandlik singari murakkab jarayonlarda qo'l kelishi mumkin. Mayda motorikani rivojlantirish uchun maxsus rivojlantiruvchi o'yinchoqlar — aylanuvchi shiqildoqlar, g'ildirakli, dastakchali, mozaika, mayda koptokchalar, shar va boshqa bir qancha shunga o'xshash o'yinchoqlar olib berish mumkin. Odatda, bolalarga bu o'yinchoqlar shunchalik yoqadiki, ular uzoq vaqtgacha u bilan mashg'ul bo'ladi. Shu maqsadda bolaga (albatta, nazorat ostida) yirik donali munchoq olib berish mumkin. Munchoqlarni aylantirish mashqidan keyin uni bolaning bo'yi yetmaydigan joyga yashirib qo'ying. Bunday o'yinchoq bilan bolani tanho qoldirmang, bu xavfli.



Televizor, musiqa, kitoblar

Ikki yoshgacha bolani televizor ko'rgani qo'ymang va pulni uzoqroq joyga qo'ying. Bolaga pult bilan boshqarishni o'rgatmang. Hattoki, man eting. Buni qanday qilish mumkin? Bola uyg'qligida siz ham televizor ko'rmang, vassalom. Bolangizga bolalar qo'shiqlarini, allani qo'yib bering. Televizor oldida ketadigan vaqt o'rninga, bolangizni ochiq havoda (xiyobonlarda, hovlingizda, uyingiz oldida...) aylantiring. Bu vaqtda ertak yoki she'rlar aytib berishingiz mumkin. Bolajoningizga dastlab karton kitobchalarni, o'yinchoq kitobchalar, buklama va chiyildoq kitobchalarni berishingiz mumkin. Kitobchalarni tomosha qilayotgan bolangizga kitobdagi rasmlar nima ekanligini gapirib bering. Bu bilan bolangizning so'z boyligini oshirgan bo'lasiz.

Quyidagi hollarda shifokorga murojaat qiling:

1. To'qqizinchi oy oxiriga kelib ham bola emaklashni o'rganmaganda.
2. Faqat bir tomonga qarab emaklaganda.
3. Bola qo'l ishoralaridan foydalanmaganda (xayrlashganda qo'lini silkitmaydi, so'rashmaydi, „chapak-chapak“ qilmaydi).
4. O'zi holatini o'zgartirmaganda: o'tirgan holatdan emaklashga o'tolmaganda.
5. Jarohatlanganda (yiqilsa, boshini urib olsa, qo'l yoki oyog'i lat yeganda, kuydirib olganda).
6. Biron narsani (munchoq, danak va h.k.) yutib yuborganda.
7. Tish yorishi og'ir kechganda (harorati ko'tarilsa, ichi ketsa, milki og'risa).
8. Oyoq tayanchlari sust bo'lsa yoki oyog'ining uchida tursa.

Yetti oylik bola rivojlanishini (migdoriy) baholash

Nö	Ko'rsatkich	3	2	1
1	Mulogotga kiritishuv- chanligi	Kattalar bilan mulogotga kiritish- dan oldin, ularni yaxshi kuzatadi. Atrofga qiziqishi ortadi, "begonalar" va "o'zinkilar"ni ajratadi	O'zicha aktiv chug'urlaydi	Mulogotga kiritishish- yoki atrofga qiziqishi sust, "begonalar" va "o'zinkilar"ni ajratadi
2	Tovush reaksiyalari	O'zicha aktiv chug'urlaydi	Chug'urlashi sust	Alohida bo'g'lardan kam foydalanadi
3	Shartsiz reflekslar	Faqat so'rish reflekslari	—	Oral avtomatizm refleksining alohida komponentlari
4	Mushaklar tonusi	Ixtiyoriy va passiv harakatlilar hajmining to'liq namoyon bo'lishi	Passiv harakatlilar qatshilikning yengil oshishi yoki kamayishi	Passiv harakatlilar hajmi oshgan yoki cheklangan
				Tananing opisto-tonus, embtion yoki qurbaga holatida kuzatilishi
				Oral avtomatizm va boshqa shartsiz reflekslarning kuzatilishi
				Chug'urlashi umuman yo'q
				Atrofdagilar bilan qiziqmaydi yoki 3-ustundagi simptomlarning biriga kelishi
				1
				2
				3
				4
				5
				6
				7
				8
				9
				10

7-jadval

5	ABTR (asimmetrik bo'yin tonik reflekslari)	Yo'q	Boshini yon tomonga burganida shu tomondagi qo'lining yozilishi doimo kuzatilmaydi	O'tirishi ko'mak orgali, emaklamaydi yoki yonboshiga ishonchsiz ag'dariladi, Landau reflekslari sust chaqiriladi	Jismlarni qo'llidan qo'lga o'tkazmaydi yoki o'z yaqinlarini tanimaydi, o'yin-choqlarini tortib olmaydi	3-ustundagi simptomlarning biriga kelishi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Bola qo'llariga tirilib o'tiradi, qo'llaridan ushlaganda turadi, emaklaydi, yonboshiga bermalol ag'dariladi, pastki Landau reflekslari kuzatiladi	O'tirishi ko'mak orgali, emaklamaydi yoki yonboshiga ishonchsiz ag'dariladi, Landau reflekslari sust chaqiriladi	O'tirishi ko'mak orgali, emaklamaydi yoki yonboshiga ishonchsiz ag'dariladi, Landau reflekslari sust chaqiriladi	Jismlarni qo'llidan qo'lga o'tkazmaydi yoki o'z yaqinlarini tanimaydi, o'yin-choqlarini tortib olmaydi	3-ustundagi simptomlarning biriga kelishi
7	Sensor funksiyalar	O'yinchoqlarni tortib oladi, jismlarni qo'llan qo'lga bermalol o'tkazadi, o'z yaqinlarining ovozi bermalol tanaydi	1-ustundagi bitta yoki ikkita reaksiyaning kuzatilishi	Jismlarni qo'llidan qo'lga o'tkazmaydi yoki o'z yaqinlarini tanimaydi, o'yin-choqlarini tortib olmaydi	3-ustundagi simptomlarning biriga kelishi	3-ustundagi simptomlarning biriga kelishi

№	Ko'rsatkich	3	2	1	0
1	Mulogotga kirishuvchanligi	Kattalar bilan o'yin mulogotga kirishadi, imo-ishora va chug'urashlar o'zini o'ziga "o'zini" va "begona"larni aniq mulogotga kirishmaydi	O'yin o'ziga mulogotga kirishadi, imo-ishora aniq holatlar yoki imo-ishora-lar o'ziga mulogotga kirishmaydi	"O'zini" va "begona"larni mulogotga kirishmaydi	Mulogotga sust kirishadi yoki "o'zini" va "begona"larni mulogotga kirishmaydi
2	Tovush reaksiyalari	Intonatsiyasi aktiv, aniq chug'urash	Chug'urash kam va intonatsiyasiz	Juda kam holatlarda tovushlar chiqaradi	Chug'urashlari umumiy yo'q
3	Shartsiz reflekslar	Faqat so'z refleks bor	—	—	Oral avtomatizm va boshqa shartsiz reflekslarning kuzatilishi
4	Mushaklar tonusi	Ixtiyoriy va passiv harakatlar hajmining to'liq namoyon bo'lishi	Passiv harakatlar qashshilikning kamayishi	Passiv harakatlar hajmi oshgan yoki cheklangan	Tananing opistotonus, embriyon yoki qurbaga holatida kuzatilishi

Sakkiz oylik bola rivojlanishini (miqdoriy) baholash

8	Stigmalar (ug'ma nuqsonlar)	Normal ko'rsatkichlar doirasida bo'ladi	Umumiy soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va ular ko'pincha yuz sohasida joylashgan	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki og'ir nuqsonlar kuzatiladi
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'illaylik yoki yuz asimetriyasi	G'illaylik, Grefe simptomi, mistagm, bulbar yoki psevdobulbar sindrom-larning doimo kuzatilishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi
10	Patologik harakatlari	Yo'q	—	O'yincholarni tortib olingan titrab ketadi yoki tilning titrashi kuzatiladi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash

8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Normal ko'rsat - kichiklar doirasida bo'ladi	Umumiy soni 5-6 tadan oshmaydi	Stigmalarining soni ular ko'pincha 6 tadan ko'p va yuz sohasida joylashgan	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki og'ir nuqsonlar kuzatiladi
9	Bosh miya nervlari	O'zgarishlar yo'q	Yengil g'ilaylik yoki yuz asimetriyasi	G'ilaylik, Grefe simptomi, nistagm, bulbar yoki pseudobulbar sindromlarning doimo kuzatilishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi
10	Patologik harakatlilar	Yo'q	Ko'zida, tana, qo'l va oyoqlar, mimik mushaklardagi funksional tiklarning kuzatilishi	O'yinchoglarni tortib olganida titraydi yoki titning titrashi kuzatiladi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrashi kuzatiladi

5	ABTR (asimetrik bo'yin tonik reflekslari)	Yo'q	—	Boshini yon tomonga burganida shu tomondagi qo'lning yozilishi doimo kuzatilmaydi	Boshini yon tomonga burganida "qilichboz" holatining kuzatilishi
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	Tiralmasdan o'tiradi va o'tira oladi, to'rt oyqalab turadi, tirilib tizzalariga o'tiradi, pastki Landau refleks kuzatiladi	1-ustundagi reaksiyalardan biri gumonli	Pastki Landau refleks kuzatilmaydi yoki qo'lga tirilib o'tiradi yoki mustaqil o'tira olmaydi	Mustaqil 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi
7	Sensor funksiyalar	2-3 ta o'yinchog bilan o'ynaydi, ularni bir-biriga uradi, otadi, o'z yaqin odamlarining yuzlarini tanaydi, o'z ismini biladi	Ko'pincha, fagat bitta o'yinchog bilan o'ynaydi yoki chapaksimon harakatlilar qilishi kam	Ismi bilan chaqirganda e'tibor qilmaydi yoki o'ziga yaqin odamlarining yuzini tanimaydi yoki o'yinchoglarni fagat og'ziga soladi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi

To'qqiz oylik bola rivojlanishini (migdoriy) baholash

Nº	Ko'rsatkich	3	2	1	0
1	Mulogotga kirishuv-chanligi	Kattalar bilan o'yin mulogotga kiradi, onasiga emosional reaksiyalari qiladi, imo-ishora orqali tushuntiradi	Alohida, tushunarlil so'zlar paydo bo'ladi	Chug'urtlaganda fagat unli tovushlar chiqaradi yoki intonatsiyali tushunarlil so'zlar dan juda kam foydalanadi	Onasi bilan mulogot qilganida emosional reaksiyalari sust rivojlangan
2	Tovush reaksiyalari	so'zlar paydo bo'ladi	Chug'urtlaganda fagat unli tovushlar chiqaradi yoki intonatsiyali tushunarlil so'zlar dan juda kam foydalanadi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	O'yincholqlar bilan imo-ishoralari orqali mulogot qilmaydi
3	Shartsiz reflekslar	Fagat so'rish refleksi bor			Chug'urtlaganida intonatsiyasiz juda sust va mulogot qilmaydi
4	Mushaklar tonusi	Ixtiyoriy va passiv harakatlari hajmining to'liq namoyon bo'lishi	Passiv harakatlarda qarshilikning yengil oshishi yoki kamayishi	Passiv harakatlari hajmi oshgan yoki cheklangan	Tananing opisto-tonus, embriion yoki qurtbaga holatida kuzatilishi

5	ABTR (asimetrik bo'yin tonik reflekslari)	Yo'q			Boshini yon tomonga burganida shu tomondagi qo'lining yozilishi doimo kuzatilmaydi	Boshini yon tomonga
6	Zanjirli simmetrik reflekslar	O'yinchog'larni o'tirib o'yaganida muvozanatni ushlab turadi, tirilib o'midan turadi	1-ustundagi reaksiyalardan biri gumonli	Qo'lga tirilib o'tiradi yoki turishga olmaydi yoki 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Mustaqil o'tira olmaydi yoki 3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	
7	Sensor funksiyalar	Ayrim buyruqlarni bajaradi, berkitilgan o'yinchog'larni qidiradi, mayda jismlarni ikkita barmog'i bilan oladi	Berkitilgan o'yinchog'larni qidirmaydi yoki o'yinchog'larni barmog'lari bilan olmaydi yoki buyruqlarni bajarmaydi	2-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Atrofdagilar va o'yinchog'larga qiziqishi yo'q yoki mulog'ga kitishmaydi	
8	Stigmalar (tug'ma nuqsonlar)	Normal ko'rsat- kichlar doirasida bo'ladi	Umumiy soni 5—6 tadan oshmaydi	Stigmalar soni 6 tadan ko'p va ular sida joylashgan	Stigmalar soni 8 tadan ko'p yoki kuzatiladi	

9	Bosh miya nervlari	Patologiyasi	yo'q	Yengil g'ilaylik yoki yuz asimetriyasi	G'ilaylik, Grefe simptomlari, mistagm, bulbar yoki pseudobulbar sindromlarning doimo kuzatilishi	3-ustundagi simptomlarning birga kelishi	Shaytonlash xurujlari yoki tinch paytida titrash	Patologik harakatlar	10
			Yo'q	Ko'z mushaklari, tana, qo'l va oyoqlar, mimik mushaklardagi funksional tiklaning kuzatilishi	Jismilar yoki o'yinchoqlarni o'ynaganda titraydi yoki kuzatiladi				

FAHRIYATIM SO'ZLARI

O'ninchi, o'n birinchi va o'n ikkinchi oylar

Odatda, ko'p onalar bola bir yoshga to'lganda ko'krak berishni to'xtatadi yoki qo'shimcha ovqat berishga o'tadi. Bu borada bolalar shifokori bilan maslahatlashib, taxminiy taomnoma tuzdirib, tartibli ovqatlantirishni davom ettirishingiz maqsadga muvofiqdir.

Bolani cho'miltirish

Avvalgidek, bolajoningizni cho'miltirish uchun vannachadan foydalaning. Har kuni er-talab bolaning yuz-qo'llarini yuving.

Bu yoshda bola xursand bo'lib cho'miladi: yuvish uchun dam qo'lini, dam oyog'ini o'zi tutadi, suvni shaloqlatishni yaxshi ko'radi, qattiq kuladi va o'zicha gapiradi. Bolani kun ora cho'miltiring, agar ko'p terlasa har kuni cho'miltirangiz ham bo'ladi. Cho'milish vannasiga yaxshi ko'rgan o'yinchoqlarini solib qo'ysangiz, suyunadi va mazza qilib cho'miladi.



Uyqu

Shu yoshdan boshlab kunda ikki marta uxlatang. Bedorlik oralig'i 3,5—4 soat, kunduzgi uyqu — 1,5 soat bo'lishiga harakat qiling. Agar bolangiz 7.30 da tursa, uning birinchi uyquasi 13 dan 14.30 gacha, ikkinchisi esa 6 — Sh. Sh. Shomansurov va boshq.



16.30 dan 18.00 gacha bo'lishi mumkin. Kunduzgi va tungi uyqu oralig'i to'rt soatdan kam bo'lmashligi kerak. Aks holda bola „o'yinga to'ymay“ qolishi mumkin va uxlashi qiyin bo'ladi. Bolangiz kunduzgi uyqudan 18.00 da tursa, uni 22.00 da uxlashga yotqizing. Goho bola kunduzi juda uzoq uxlaydi va qoidadagi bir yarim soatdan keyin uyg'onishni istamaydi. Buni kuzatib boring. Bola uyqudan turgisi kelmasa, yana yarim soat sabr qilib, keyin uyg'oting. Kunduzgi uyqu uchun bu vaqt kamlik qilsa, u injiqlanib va qaysarlik bilan uyg'onadi. Uning kunduzgi uyqusini soat ikkigacha, eng kechi bilan ikki yarim soatgacha uzaytiring. Tabiiyki, unday bolalar tunda kamroq uxlaydilar.

